

FORS TILI



A. QURONBEKOV, A. VOHIDOV, T. ZIVAYEVA

زبان قارمۇسى



احمد قارمۇشىقىيى مەرضۇنىك ئاھىمۇرىقى ئۈنگىزىلە ئىسلاخىم



81.2 Pezs
K-80

**O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA
O'RТА MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

A. QURONBEKOV, A. VOHIDOV, T. ZIYAYEVA

FORS TILI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan oliy o'quv yurtlari uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan*

**"Musiqा" nashriyoti
Toshkent
2006**

81.2 Pers

K 80

Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

A.Quronbekov, A.Vohidov, T.Ziyayeva

K 80 Fors tili: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik /

A.Quronbekov, A.Vohidov, T.Ziyayeva; – T.: “Musiqa”, 2006 – 568 b.

I. 1,2 muallifdosh.

BBK 81.2Pers ya722

Filologiya fanlari doktori, professor A.Quronbekov tahriri ostida

Forscha matn muharriri – Seyyed Javad Jalali-Kiyasari

Taqrizchilar – M.Imomnazarov, filologiya fanlari doktori, professor

X.Uralov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

№ 388 – 2006

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

Qat’iy buyurtma.

© O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Musiqa” nashriyoti, 2006 y.

وزارات آموزش عالی و متوسط مخصوص جمهوری ازبکستان
احمد قرانبیکوف، عوض بیک واحدوف، توخته خان ضیایووا

زبان فارسی

از طرف وزارات آموزش عالی و متوسط مخصوص جمهوری ازبکستان
بهایابه کتاب درسی زبان فارسی توصیه شده است

ویراستر کل: احمد قرانبیکوف

ویراستر من فارسی: سید جواد جلالی کیاسری

انتشارات "موسیقه"

تاشکند

۲۰۰۶

Ushbu darslik filologiya (fors tili va adabiyoti) ta'limi yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchilarga mo'ljallangan. Darslik ta'limning birinchi yili materiallari, ya'ni fors tili grammatikasi asoslarini, og'zaki so'zlashuv malakasini shakllantiruvchi va mustahkamlovchi matnlar va dialoglarni o'z ichiga oladi.

Kitobdan oliv o'quv yurtlarining fors tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan talabalari hamda fors tilini mustaqil o'rganayotganlar ham foydalanishlari mumkin. Darslikdan foydalanishda qulaylik yaratish uchun kitob oxiriga mashg'ulotlar leksik birliklarini qamrab olgan lug'at ilova qilingan.

Руслаң табы

Олардан оларни таба оларни таба оларни таба оларни таба

Таба оларни таба оларни таба оларни таба оларни таба оларни

Таба оларни таба оларни таба оларни таба оларни таба оларни

Таба оларни таба оларни таба оларни таба оларни таба оларни

"Таба оларни"

Мактаб

9 × 7

SO‘Z BOSHI

Fors tili O‘zbekistonda qadim zamonlardan o‘rganilib kelmoqda. O‘tmish madaniy merosimizning kattagina bir qismi fors tilida yozilgan.

Hozirgi paytda fors tili O‘zbekistonda ilmiy va amaliy maqsadlarda o‘rganiladi.

Sizga taqdim etilayotgan ushbu «Fors tili» darsligi fors tilini nazariy va amaliy maqsadlarda o‘rganayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Bu darslikdan Toshkent Davlat sharqshunoslik institutida fors tilini o‘rganuvchi guruhlarning 1-kurs va fors tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘rganayotgan universitetlarning filologiya va tarix fakultetlari va litseylari talabalari foydalanishlari mumkin.

Darslik II qism, 25 darsdan iborat bo‘lib, har bir dars 5-6 soat mashg‘ulotga bo‘lingan. Lekin talabalarning bilim saviyasiga qarab, 8-10 soat ham mashg‘ulot o‘tkazish mumkin.

Kitobning birinchi qismi beshta darsdan iborat bo‘lib, asosan e’tibor fonetika va grafikaga qaratilgan.

Fors tilining fonetik sistemasi bir qarashda o‘zbek tili fonetik tizimi bilan bir xilday ko‘rinadi. Lekin aslida unday emas. Ayniqsa, cho‘ziq unli fonemalar o‘zbek tili fonemalaridan keskin farq qiladi. Fors tili fonetik sistemasini o‘zbek o‘quvchisi va talabalariga o‘rgatayotganda mana shu keskin farqqa alohida e’tibor berish kerak. O‘qituvchi to hamma talabalar bu fonemalar talaffuzini to‘g‘ri o‘rganib olgunga qadar mashq qildirishi kerak.

Unli fonemalarda o‘zbek talabalari o‘rganishi qiyin kechadigan yana bir fonetik jihat bu «ye» va «i», «o» bilan «u», «ye» bilan «a»ning ishlatalishi va talaffuzidir. Buning sababi o‘zbek tilidagi fors va arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning o‘ziga xos talaffuzidir. Macalan, o‘zbek tilidagi "Eron", "muallim" "tuhfa", "kitob" so‘zlar fors tilida "Irān", "moallem", "tohfe", "ketāb" deb talaffuz qilinadi. Lekin shuni ham aytish kerakki, bu farqlar muntazam emas, balki ba’zi o‘rinlarda bu fonemalar fors tili va o‘zbek tilida o‘zaro hamohangdir. Masalan, "nur", "pir", "šer", "qalam" so‘zlar fors va o‘zbek tillarida bir xil talaffuz qilinadi.

Undosh fonemalardan "q", "y" fonemalarining farqini bilib olish o‘zbek tolibi uchun qiyin kechadi.

Fors tilida «q» fonemasi yo‘q, arab va turkiy tillardan kirib qolgan o‘zlashmalardagi «q» fonemasi fors tilida "γ" shaklida yoki yopiq bo‘g‘inlarda «χ» shaklida talaffuz qilinadi. Masalan, "qoshiq" - "γāsoq" shaklida, "iqtisod" "extesād" shaklida talaffuz qilinadi.

Fors tilini o‘rganishda yana bir xususiyat, bu fors tili uchun qabul qilingan arab yozuvidir. Arab tili fonologik tizimiga mos alifbodagi 28 belgi forschaga to‘la qabul qilingan, lekin ularning talaffuzi arab tilidan farqli. Masalan, fors tilida "s" undoshini ifodalash uchun س, ص, "h" fonemasi uchun ح, ه, "z" fonemasi uchun ظ, ض, "t" fonemasi uchun ت, ط, "γ" fonemasi uchun غ, ق belgilari ishlataladi. Bular faqat yozuvda farq qilib, talaffuzda bir xil talaffuz qilinadi. O‘qituvchi bu fonemalarni o‘rgatishda ham har gal qaysi o‘rinda qaysi harf ishlatalishiga talabalarning e’tiborini qaratishi kerak.

Odatda, fors tilining fonetik tizimini o‘tayotganda o‘qituvchilar harflarni yozishga va o‘qishga ko‘proq vaqt ajratishadi va ularning talaffuziga ko‘pda e’tibor berishmaydi.

Natijada bu talabalar institutni bitirguncha ham to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganmaydi. O‘qituvchi fonetik tizimni o‘rgatishga jiddiy e’tibor berishi, ajratilgan soatlardan to‘la foydalanishi ya, albatta, lingafon vositalaridan foydalanib, tolibga yo‘l qo‘yayotgan xatolarini ko‘rsatishi kerak. Shuni unutmaslik kerakki, har bir noto‘g‘ri talaffuz qilingan so‘z til egasi uchun savodsizlik nishonasi. Tolib tilning grammatikasi va so‘z boyligini yaxshi o‘rgansa-yu, noto‘g‘ri talaffuz qilsa, til egasi “Talaba, umuman, tilni bilmaydi» degan hukm chiqaradi.

Darslikning ikkinchi qismi ko‘proq fors tilidagi so‘z turkumlarining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning grammatik kategoriyalarini tushuntirish va o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu qismda har bir so‘z turkumining umumiy shakllari, yasalishi, boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishi va gapdagisi vazifalariga ta’rif beriladi. Bu xususiyatlarni talaba mustahkam egallab olishi uchun har biriga bir yoki bir nechta mashq beriladi.

Har bir grammatik mavzu o‘tilgandan keyin shunga mos matn hamda bir tomonlama va ikki tomonlama suhbatlar berilgan.

Bu matn va suhbatlar, bir tomondan, tolibning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, ikkinchi tomondan, uning amaliy bilimini oshirishga mo‘ljallangan.

Har bir matnda, odatda, 70-80% so'zlar qaytariladi, faqat 20-30% yangi so'z va iboralar kiritiladi.

Yangi kiritilgan so'zlar va ko'p qo'llaniladigan iboralarni mustahkamlash uchun har bir matnga leksik izohlar berilgan.

Uchinchi qismda asosiy e'tibor so'z birikmasi, sodda gap va qo'shma gap sintaksisi asoslarini o'rgatishga qaratilgan. Bu qismda ham har bir mavzu bir qator mashqlar bilan mustahkamlanadi.

Darslikda talabalarning yod olish quvvatini oshirish uchun ko'plab she'r, hikoyat, maqol va hikmatli so'zlar berilgan.

Darslikni to'la o'zlashtirgan talaba fors tili fonetikasi, morfologiysi va sintaksisi asoslarini to'la o'rganib oladi, undan tashqari 1000-1200 so'z va og'zaki nutq iboralarini aktiv o'zlashtiradi.

Darslikni tuzishda I.K.Ovchinnkovaning «Uchebnik persidskogo yazika», Y.A.Samarening «Ämuzeš-e zabān-e farsi» va Eronda chiqqan qator «Fors tili» darsliklaridan foydalanildi.

Mualliflar darslikning kamchilik va xatolarini ko'rsatib, o'z mulohazalarini bildiradigan kishilarga oldindan minnatdorchilik bildiradilar.

ablik id med xalamsinol boyz igablit alabli faydlat oshish
ago nighalabiop xalflas axx agiz'o av ibqumnilip xalflas
gondit id id si'ol nighazolom nighiz ablik id
qurisulammoni id ,ibaliyeg'i abirdola imisid (oldesuvon) xalamsinol
zurzu idishgina nasa idovunungr'o lit initialindil ilpuq av fenderz'o
,ibaliyug'o yieso'yp nafid imisid xalduvor igabili amo u ,abzabo
lix id igabiyup amjbalitaldi abliutli id id av zeds'0 ,palam-i
gnaloyop inishtalar ginalas'0

shablik so'zi	shablik fonda'si	shablik so'zi	shablik fonda'si
bilak	flik	dilok	gofik
qil	zofa	maloq	maloq
stolik	zozon	soltz	sozsa
vezdel	vezdel	zilorgam	zilorgam
zibraq	zloqam	zuetob	zuetob
zibraz	zkeroy	tezo	tezo

BIRINCHI QISM

BIRINCHI DARS

Birinchi mashg'ulot

Fors tilidagi fonemalar tizimi

Inson nutqining tarkibiy bo'laklarini tashkil etuvchi tovushlarga fonemalar deyiladi. Fonemani ifodalovchi tovushlar tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli o'laroq muayyan shaklga ega. Fonemalar insoniyat rivoji davomida turli xalqlarda turli shakllarni kasb etgan.

Shu sababli turli millatlar tilidagi nutq tovushlari – fonemalar bir xil emas. Masalan: o'zbek tilida "q" tovushi fors tilida yo'q, shuning uchun ikkala tilda mavjud bolgan ayni so'zlar boshqa-boshqa talaffuz qilinadi:

Masalan:	o'zbek tilida	fors tilida
	qoshiq	yāšoy
	qaymoq	yeymāy

Undan tashqari ikkala tildagi ayni fonemalar ham bir xilda talaffuz qilinmaydi va o'ziga xos talaffuz qoidalariga ega.

Mana shu zikr etilgan mulohazalarga ko'ra har bir tilning fonemalar (tovushlar) tizimi alohida o'rganiladi. Bu fonemalarning o'xshash va farqli jihatlarini til o'rganuvchi oson anglashi uchun, odatda, u ona tilidagi tovushlar tizimi bilan qiyosiy o'rganiladi.

1-mashq. O'zbek va fors tillarida ishlataladigan quyidagi bir xil so'zlarning talaffuzini qiyoslang.

<i>o'zbek tilida</i>	<i>fors tilida</i>	<i>o'zbek tilida</i>	<i>fors tilida</i>
<i>kitob</i>	<i>ketāb</i>	<i>kalit</i>	<i>kelid</i>
<i>qalam</i>	<i>yalam</i>	<i>sher</i>	<i>śir</i>
<i>xona</i>	<i>xāne</i>	<i>noma</i>	<i>name</i>
<i>maydon</i>	<i>meydān</i>	<i>hikmat</i>	<i>hekmət</i>
<i>daraxt</i>	<i>deraxt</i>	<i>maqola</i>	<i>mayāle</i>
<i>do'st</i>	<i>dust</i>	<i>risola</i>	<i>resāle</i>

Fonema va harf tushunchasi

Fonema(tovush)lar yozuvda ma'lum shaklda ifodalanadi. Tovushlarning yozuvdagι shakli shartli bo'lib, har bir millat o'zining tiliga va undagi tovushlar tizimiga mos yozuya ega bo'lishi mumkin. Lekin dunyodagi barcha tillar ham o'z yozuv tizimiga ega emas. Buning asosiy sabablaridan biri jahondagi tillar taraqqiyotining turli xil tarixiy sharoitda rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Shuning oqibatida dunyoda keng tarqalgan yozuv turlari uncha ko'p emas, asosan lotin yozuvi (taxminan jahonning 70% aholisi qo'llaydi), arab yozuvi, xitoy yozuvi, hind yozuvi, kirill yozuvidan foydalilanildi. Ba'zi millatlarning, masalan: gruzinlar, armanlar, yahudiylarning va shunga o'xshash millatlarning o'z yozuvi bo'lib, bu faqt o'sha millat doirasida qo'llaniladi va boshqa xalqlarga tarqalmagan.

Fors tilida arab yozuvidan foydalilanildi. Bu yozuv Eronda 7-8-asrlarda arablar fathidan keyin rasm bo'la boshladi va hozirgi davrda ham arab alifbosidan foydalilanildi.

Arab alifbosi fors tili fonologik tizimini to'la aks ettirmaydi va ba'zi unli tovushlar ("e", "o", "a"), umuman, alifbo tizimiga kirmagan, ba'zi undoshlar ikki xil, uch xil va 4 xil harflar bilan ifodalanadi.Bu esa til o'rganuvchi uchun muayyan qiyinchiliklar tug'diradi.

Shu sababdan bo'lsa kerak, 60-70-yillarda Eronda lotin alifbosiga o'tish harakati gazeta va jurnallarda keng muhokama etilgandi. Lekin hozircha Eronda arab alifbosi yagona yozuv vositasi sifatida qo'llaniladi.

O'zbek tilida hozirgi kunda lotin alifbosiga o'tish jarayoni ketyapti, shuning uchun fors yozuvidagi va o'zbek yozuyidagi harflar lotin alifbosiga qiyosan o'rgatiladi.

Harflar orasida tallaffuz farqlarini ifodalash va uni yozuvda ko'rsatish uchun shartli belgilar tizimi – transkripsiyadan foydalilanildi.

“Transkripsiya” so‘zi lotincha bo‘lib “trans” – o‘tkazish, “criptum” – yozuv ma’nosini anglatadi. Ya’ni bir yozuvdan ikkinchi yozuvga o‘tkazish ma’nosini beradi.

Fors tilida hozirgacha mavjud manbalarda ikki xil transkripsiya sistemasiidan foydalilanildi:

1) Lotin harflari asosidagi transkripsiya sistemasi:

Hh	ه	Şş	ش	Āā (cho‘ziq)	ଠ
Tt	ة	Ss	ص	Bb	ବ
Yy	ي	Zz	ض	Pp	ପ
Āä	ى	Tt	ط	Tt	ତ
,	ء	Zz	ظ	Ss	ଥ
Aa	‘	‘	ع	Jj	ଜ
Ee	‘	‘	غ	Čč	ଝ
Oo	‘	Ff	ف	Hh	ହ
Uu	و	‘	ق	Xx	ଖ
İi	ى	Kk	ك	Dd	ଦ
An	‘	Gg	گ	Zz	ଢ
On	‘	Ll	ل	Rr	ର
Tashdid (ikki marta)	‘	Mm	م	Zz	ଜ
		Nn	ن	Žž	ଝ
		Ww	و	Ss	ସ

2) Kirill alifbosi asosidagi transkripsiya sistemasi

Āā	Ҷ	Pp	ر	Гг	گ
Аа	и	Зз	ڇ	Лл	ل
Ээ	و	Жж	ڙ	Мм	م
Оо	و	Сс	س	Нн	ن
Бб	ب	Шш	ش	B,o,y,oy	و
Пп	ٻ	Cc	ص	H,e,(e)	ه
Тт	ت	Зз	ض	Й,ي,ئى(ئى)	ي
Сс	ٿ	Тт	ط		
Дж	ج	Зз	ظ		
Чч	چ	Â,Э,O,-'	ع		
H h	ح	í	غ		
Xx	خ	Фф	ف		
Дд	د	ѓ	ق		
Зз	ڏ	Кк	ڪ		

Fors tili o'rganuvchilari uchun bu ikkala transkripsiya majmuasi zarur bo'lib, shu kungacha chop etilgan kitoblardan foydalanishda qo'l keladi.

2-mashq. Quyidagi so'zlarning o'zbek tilida lotin alifbosida ifodalanishi bilan lotin alifbosi asosida tuzilgan transkripsiyada ifodalanishini qiyoslang:

o'zbek tilida	fors tilida	o'zbek tilida	fors tilida
Nargiz	narges	qudrat	yodrat
muhojir	mohâjer	fozil	fâzel
majlis	majles	adliya	adliyye

<i>lojuvard</i>	<i>läj(e)vard</i>	<i>sherdor</i>	<i>šerdär</i>
<i>guliston</i>	<i>golestān</i>	<i>sazovor</i>	<i>sazāvār</i>
<i>ko'r</i>	<i>kur</i>	<i>ro'zg'or</i>	<i>ruzegär</i>
<i>go'dak</i>	<i>kudak</i>	<i>daxmaza</i>	<i>daxmaze</i>
<i>kosa</i>	<i>käse</i>	<i>xurjun</i>	<i>xorjin</i>

Ikkinchı mashg'ulot

Fors tilidagi unli tovushlar (umumiy ta'rifi)

Unli tovushlar deb talaffuz jarayonida biron to'siqqa uchramaydigan tovushlarga aytildi.

Fors tilida 6 unli fonema va 2 ta diftong bor: Bular quyidagilar: “i”, “e”, “ä”, “u”, “o”, “a” yakka unlilar va “ey” va “ou” diftonglari.

Unli tovushlar odatda ularning xossasiga ko'ra tasnif etiladi: Unli tovushning xossalari uch belgiga ega:

- a) hosil bo'lish qatoriga ko'ra;
- b) til ko'tarilishi darajasiga ko'ra;
- c) lablarning qatnashuviga ko'ra.

Fors tilidagi unlilar hosil bo'lish qatoriga ko'ra “old qator” va “orqa qator” unlilariga bo'linadi. “i”, “e”, “a” unlilari old qator va “u”, “o”, “ä” orqa qator unlilari hisoblanadi.

Har bir qatorda tilning uch xil ko'tarilish darajasi ko'zda tutiladi; yuqori, o'rtalik va quyi. Oldingi qator unlilardan “i” yuqori daraja, “e” o'rtalik daraja, “a” quyi darajada til ko'tarilishidan hosil bo'ladigan unli tovushlar hisoblanadi. O'zbek tilidagi orqa qator unlilardan “u” yuqori daraja, “o” o'rtalik daraja va “ä” quyi darajada til ko'tarilishidan hosil bo'ladigan unlilar hisoblanadi. “i”, “e”, “a” oldingi qator unlilari lablanmagan, “u”, “o”, “ä” orqa qator unlilari lablangan unlillardir:

Fors tilidagi unlilar jadvali

Qator	lablanmagan		lablangan
Til ko'tarilish darajasi	old	o'rtalik	orqa
Yuqori darajasi	I	—	U
O'rtalik darajasi	E	—	O

Quyi darajasi	A	—	Ā
---------------	---	---	---

Fors tili unlilarining o'ziga xos belgilaridan biri ulardagi cho'ziq qisqalik xususiyatidir.

Zamoniy ko'rsatgichga ko'ra:

"i", "u", "ä" cho'ziq unlilar, "e", "a", "o" qisqa unlilar hisoblanadi. Cho'ziq unlilar urg'uli, urg'usiz, ochiq yoki yopiq bo'g'inlarda kelishidan qat'i nazar, o'z cho'ziqlik xususiyatini saqlab qoladi.

Qisqa unlilar esa urg'uli bo'g'inlarda urg'u tushmaydigan bo'g'inlarga nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Shuning uchun ba'zan bu unlilarning bu xususiyatlari nazariga olgan holda sobit unlilar: "i", "u", "ä" va nosobit unlilar "e", "a", "o" ga ham ajratiladi.

3-mashq. Quyidagi so'zlarda unlilarning talaffuz xususiyatlariga e'tibor bering.

Qisqa unlili

so'zlar:

sar
ser(r)
to
xodrou
madrase
yek
do
panj
gol
pesan
doxtar
pedar

Cho'ziq unlili

so'zlar:

bini
dānā
pir
māmān
nuri
sāl
pir
sālār
tutun
sāmāni
kutāh
mānus
niru

4-mashq. Qisqa va cho'ziq unlilardan iborat so'zlarning talaffuziga e'tibor bering.

Mādar, mardāne, mihmānxāne, ābrumand, goftogu, xānegi, kabutar, kelid, navisande, zanāne, şefāxāne, xorśid, setāre, māhetābān, ketābxāne, ketābe darsi, bimārestān.

Fors va o'zbek tilidagi unlilar talaffuzidagi asosiy farqlar

O'zbek tilida ham fors tilidagi kabi oltita unli fonema mavjud: a, o, i, "e", (e) u, o'. Ular son jihatdan bir xil – 6 ta, lekin sifati bilan farq qiladi.

Birinchi farq bu fors tilidagi unlilarning hosil bo'lish qatoridagi farqidir; o'zbek tilidagi "i" unlisi fors tilidan farqli ravishda til orqa qatoriga ham xosdir "u" va "o" unlilarining, fors tilidan farqli ravishda, til oldi varianti ham mavjud:

Mas: til oldi qatori

ish
tish
biz
keling

kul
gul
uzum
sunbul

o'rdak
ko'l
ko'klam
g'o'za

til orqa qatori

qызық
qыт
qыз
qымыз

qul
pul
qulun
qum

o'roq
qo'l
yo'l
bo'l

Fors tilidagi unlilarning o'zbek tilidagi unlillardan ikkinchi bir keskin farqi "i", "u" fonemalarining cho'ziqlik xususiyatidir. O'zbek tilidagi "i" va "u" unlilari cho'ziqlik xususiyatiga ega emas. Fors tilidagi "a" unlisi bilan o'zbek tilidagi "o" unlisi deyarli bir xil cho'ziq talaffuz qilinadi.

5-mashq. Quyidagi so'zlarda unlilarning talaffuzidagi farq va o'xshashlikka e'tibor bering.

"i" unlisi

Fors tilida

til oldi
ijād
digar

O'zbek tilida

til oldi
iliq
mil

O'zbek tilida

til orqa
idish
mix

<i>imān</i>	<i>til</i>	<i>tig'</i>
<i>niru</i>	<i>siz</i>	<i>sir</i>
<i>pīšin</i>	<i>yirik</i>	<i>qizil</i>
<i>nāniy</i>	<i>birikish</i>	<i>qimiz</i>
<i>hādiy</i>	<i>ming</i>	<i>qirg'iz</i>

“u” unlisi

Fors tilida	yumshoq”u”	qattiq”u”
-------------	-------------------	------------------

<i>nur</i>	<i>gul</i>	<i>qush</i>
<i>niru</i>	<i>kul</i>	<i>qul</i>
<i>buy</i>	<i>uch</i>	<i>tur</i>
<i>bute</i>	<i>uchun</i>	<i>qur</i>
<i>bud</i>	<i>kuch</i>	<i>bur</i>
<i>pul</i>	<i>puch</i>	<i>ur</i>
<i>puš</i>	<i>bulbul</i>	<i>qum</i>

“ă” unlisi

Fors tilida	O’zbek tilida
-------------	---------------

<i>ābād</i>	<i>obod</i>
<i>āsmān</i>	<i>osmon</i>
<i>ādāb</i>	<i>odob</i>
<i>ālam</i>	<i>olam</i>

Uchinchi mashg’ulot

Diftonglar

Fors tilida unlilardan tashqari ikkita diftong: “ey” va “ou” uchraydi. Ikkita unli tovush birikmasini ifodalagan tovushga diftong deyiladi. Masalan: *eyvān*, *keyvān*, *sougand*, *xodrou*.

Diftonglar so‘zda faqat undosh tovushlardan avval so‘z boshida, so‘z o‘rtasida va oxirida uchraydi.

Unli tovushlardan oldin hech qachon diftonglar uchramaydi va bunday holatlarda diftong birikmasining ikkinchi bo‘lagi undosh tovushga aylanadi: masalan; *peyrou-peyrvān-peyravi*. *Farroxpey-farroxpeyān*.

6-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tilidagi ayni so‘zlarning talaffuzi bilan qiyoslang.

Fors tilida	O‘zbek tilida	Fors tilida	O‘zbek tilida
<i>eyvān</i>	ayvon	<i>housale</i>	hafsalə
<i>beyray</i>	bayroq	<i>houz</i>	hovuz
<i>peydā</i>	paydo	<i>houle</i>	hovli
<i>peyrou</i>	payrov	<i>dourān</i>	davron
<i>peyyāmbar</i>	payg‘ambar	<i>doure</i>	davra
<i>peymān</i>	paymon	<i>doulat</i>	davlat
<i>heyvān</i>	hayvon	<i>roušan</i>	ravshan
<i>heydar</i>	haydar	<i>roušaniy</i>	ro‘shnolik
<i>reyhān</i>	rayhon	<i>zouraq</i>	zavraq
<i>zeytun</i>	zaytun		

7-mashq. Berilgan so‘zlardan diftongli so‘zlarni ajrating.

āsāyeš, ouyāt, avval, āvizān, āine, innou, bālāye, bāvar, bāyad, barāye, beyān, beyt, bidār, beyn, biniyāz, pāyin, piyāz, tošak, tavajjoh, touzih, tavalod, tahiye, jelou, javāb, jour, jouhar, čāy, četour, hekāyat, houle, heyāt, xāvar, xiyābān, xeyli, dey, davāzdah, devist, divāne.

To‘rtinchı mashg‘ulot

Undoshlar

Undosh tovushlar (fonemalar) deb, ichkaridan chiqayotgan havo nutq a‘zolarining biron yerida to‘siqqa uchrab sado hosil qilishiga aytiladi.

Unlilardan farqli ravishda undoshlarni tasnif qilish ancha murakkabroq bo‘lib, paydo bo‘lish o‘rni, aytish usuli, tovush paychalari ishtiroki, ovoz ishtiroki, tarkibi va yana boshqa xususiyatlariiga ko‘ra aniqlanadi.

Fors tilida 23 ta undosh bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: b, p, t, s, j, č, h, x, d, z, r, ž, š, γ, f, k, g, l, m, n, w, y ‘

Fors tilidagi undoshlar yuqorida belgilariga qarab farqlanishi jadvalda shunday aks topadi.

Fors tili undoshlari jadvali

Portlovchi		Sof	Bedimog‘	Lab-lab	Lab-tish	Til oldi	Til o‘rtta	Til orqa	Halqum	Kekirdak	Bo‘g‘iz
Sirg‘aluvchi	Orta			P,b		T,d	K,g				
		Dimog‘li	M		N						
		Qorishiq			C, j						
	Bir manbali			F,v	S,z	Y		X,y	H		
	Ikki manbali				S,ž						
	Yon				L						
	Titroqli				R						

Fors tilidagi undoshlar bilan o‘zbek tilidagi undoshlarning o‘xhash va farqli tomonlari

O‘zbek adabiy tili undoshlar tizimida 25 ta fonema bor. Miqdor jihatidan fors tiliga nisbatan 2 ta fonema ko‘p.

Fors tilidagi asosiy undoshlar tizimi, ularning talaffuzidagi o‘ziga xos xususiyatlarga qaramasdan, deyarli bir xil.

Fors tili undoshlar tizimidagi fonemalarning o‘zbek tilidagi undoshlardan farqli tomoni shundaki, fors tilida “q” undoshi uchramaydi va o‘zbek yoki boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlardagi “q” tovushi ham “y” shaklida talaffuz qilinadi. Masalan: turkiy tildagi “cho(p)qu”, “chayu” shaklida, arabcha “qudrat”, “yodrat” shaklida va h.k.

Fors tilida “ma’ni”, “ta’lim”, “erfan” so‘zlaridagi “ ” tovushi bo‘g‘iz tovushi sifatida ajratiladi. Bu tovush arabchadan o‘zlashgan so‘zlarda uchrasha ham fors tilida arab tilidagi artikulyatsiya xususiyatlarini saqlab qolmagan va faqat tovushlarni cho‘ziqroq talaffuz qilish va bir-biridan ayirish uchun xizmat qiladi hamda bu jihatdan o‘zbek tilidagi talaffuziga o‘xhash.

8-mashq. Quyidagi fors va o'zbek tillaridagi bir xul undoshlarning talaffuziga e'tibor bering.

O'zbek tilida	Fors tilida
qobil	<i>yābel</i>
qozi	<i>yāzi</i>
qoq	<i>yāy</i>
qolib	<i>yāleb</i>
qonun	<i>yānun</i>
qadah	<i>yadah</i>
qudrat	<i>yodrat</i>
qurban	<i>yorbān</i>
qorako'l	<i>yarakol</i>
qozoq	<i>yazzāy</i>

9-mashq. Fors va o'zbek tillaridagi arab tilidan kirib kelgan bo'g'iz tovushi " " ning talaffuziga e'tibor bering".

Fors tilida	O'zbek tilida	Fors tilida	O'zb.tilida
<i>E'āne</i>	iona	<i>ta'bīr</i>	ta'bīr
<i>e'tebār</i>	<i>e'tibor</i>	<i>yat'i</i>	qat'iy
<i>e'tedāl</i>	<i>e'tidol</i>	<i>tājjob</i>	taajjub
<i>e'terāz</i>	<i>e'tiroz</i>	<i>šam'</i>	sham
<i>e'teyād</i>	<i>e'tiqod</i>	<i>tame'</i>	tama
<i>ba'zi</i>	<i>ba'zi</i>	<i>man'</i>	man
<i>ta'ādol</i>	<i>taodil</i>	<i>naf'</i>	naf
<i>ta'ārof</i>	<i>taorif</i>	<i>yal'e</i>	qal'a
<i>vā'ez</i>	voyiz		

Fors tilida undoshlarning so'zda ishlatilishining ba'zi xususiyatlari

1. Fors tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, so'z boshida qo'sh undoshlar yonma-yon kelmaydi. Agar chet tillardan o'zlashgan so'zlarda shunday holatlar uchrasa ular orasiga yoki ulardan oldin "e" yoki "o" unlisi orttiriladi. Masalan: "stakan", "estakan", "traktor" – "teraktor" va shunga o'xhash. Bu hodisa oldinlari o'zbek tilida ham kuzatilgan, lekin sho'rolar davrida rus va internasional so'zlar aynan talaffuz shaklini saqlab qolishi rasm

bo'ldi. Masalan: stol-ustal, shtraf-ishtaraf, stansiya-istansa shaklida talaffuz qilingan edi.

"l" va "r" undosh tovushlaridan iborat so'zlar bundan mustasno. Masalan: "proje", "plan" va shunga o'xshash.

2. Arab tilidan kirib kelgan ba'zi so'zlar oxirida kelgan qo'sh undoshlardan biri tushib qoladi. Masalan: arab tilidagi *hadd*, *durr*, *sirt* so'zleri fors tilida, *had*, *dor*, *ser* shaklida talaffuz qilinadi.

Fors tilidagi bu so'zlar oxiriga boshqa qo'shimcha qo'shilishi bilan qo'sh undoshlar talaffuzi tiklanadi. Masalan: "*had-de hadde*", "*dor-dorre yatim*" va h.k.

Beshinchchi mashg'ulot

"i", "u", "ə" cho'ziq unlilari

"i", "u", "ə" unlilari o'z talaffuz xususiyatlari ko'ra har doim bir xil cho'ziqlikka ega bo'lib, o'zining urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishi, qaysi harflardan keyin kelishidan qat'iy nazar doimo sobit talaffuz qilinadi. "i" unlisi – old qator, yuqori ko'tarilgan, lablanmag'an, cho'ziq (sobit) unlidi.

a) Fors tilidagi "i" unlisi keskin farq qiladi. O'zbek tilidagi "i" unlisi qisqa unli bo'lib, old qator "i" va orqa qator "j" (ы) variantlariga ega. Fors tilida esa "i" unlisi so'z boshida, o'rtasida, yoki oxirida kelishidan qat'iy nazar doimo cho'ziq talaffuz qilinadi.

b) Fors tilidagi undoshlar "i" unlisidan oldin biroz yumshoq talaffuz qilinadi. Masalan: *sin*, *din*, *bini*.

Fors tilidagi "u" unlisi orqa qator, yuqori ko'tarilgan, lablangan cho'ziq (sobit) unlidi.

Fors tilidan farqli ravishda o'zbek tilidagi "u" unlisi qisqa talaffuz qilinadi.

O'zbek tilidagi "u" unlisining fors tilidan farqli ravishda ham orqa qator va ham old qator variantlari mavjud. Masalan: orqa qator: *gul*, *kul*, *buyuk*.

c) Fors tilidagi "u" unlisi urg'uli yoki urg'usiz bo'g'inda kelishidan qat'i nazar, cho'ziq talaffuz qilinadi. Masalan: *rude*, *niru*, *kur*.

Fors tilidagi "ə" unlisi, orqa qator, quyi ko'tarilgan, lablangan, cho'ziq (sobit) unlidi.

a) O'zbek tilidagi “o” unlisining fors tilidagi “ä” unlisidan farqi shuki, o'zbek tilidagi “o” lablashgan ochiq unlidir.

b) O'zbek tilidagi “o” unlisi urg‘uli bo‘g‘inda cho‘ziqroq talaffuz qilinadi va urg‘usiz bo‘g‘inda qisqaroq. Fors tilida “ä” unlisi qaysi bo‘g‘inda kelishidan qat’iy nazar birday cho‘ziq talaffuz qilinadi.

10-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qituvchi bilan talaffuz qiling.

a) *in, si, čin, nim, sir, sini, bini, simin, šir, širin, yir, tir, pir;*

b) *mu, ru, bu, su, dur, nur, gur, bumı, birun, tuman, tut, pušāk, duri;*

s) *än, mä, nän, näm, mär, märs, bädäm, bärän, bázär, bimär, bidär, bän,*

zänu, bazu, färsi, zibä, irän.

11-mashq. Quyidagi so‘zlarni yod oling.

<i>mu</i>	- soch	<i>bázär</i>	- bozor
<i>bini</i>	- burun	<i>mä</i>	- biz
<i>nän</i>	- non	<i>färsi</i>	- fors tili
<i>mär</i>	- ilon	<i>bazu</i>	- bilak
<i>mädar</i>	- ona	<i>zänu</i>	- tizza
<i>u</i>	- u	<i>Irän</i>	- Eron
<i>ru</i>	- yuz	<i>zibä</i>	- chiroyli
<i>näm</i>	- ot, ism	<i>bär</i>	- yuk

Oltinchi mashg‘ulot

Qisqa unlilar: “e”, “a”, “o”

Qisqa unlilar, cho‘ziq unlillardan farqli ravishda, so‘zda tutgan o‘rniga va fonetik holatiga qarab o‘zgarib turadi. Qisqa unlilar ham miqdor, ham sifat jihatidan o‘zgaruvchan tovushlardir. Qisqa unlilar urg‘u tushish-tushmasligiga qarab, gohida cho‘ziq, gohida o‘ta qisqa talaffuz qilinadi. Undan tashqari qisqa unlilar talaffuziga uning qanday undoshlar bilan yonma-yon turishi ham ta’sir ko‘rsatadi. Qisqa unlilar sifat jihatidan ham turli pozitsiyada turlicha: gohida oldingi qatorda, gohida orqa qatorda talaffuz qilinadi.

Qisqa unlillardan “e” unlisi oldingi qator, o‘rtalikko‘tarilgan, lablanmagan, nosobit tovushdir.

“E” qisqa unlisi fors va o‘zbek tillari uchun mushtarak so‘zlarda “i”ga aylanib, ba’zida majhul “e” shaklida talaffuz qilinadi: Masalan:

fors tilida	o'zbek tilida
<i>eybāl</i>	iqbol
<i>eslām</i>	islom
<i>ketāb</i>	kitob
<i>nāder</i>	nodir
<i>nāme</i>	noma

O'zbek tilida “e” unlisi ko‘pincha so‘z boshida va so‘z o‘rtasida uchraydi, so‘z oxirida faqat o‘zlashgan so‘zlarda uchrashi mumkin.

Fors tilida bu unli so‘z boshida, asosan, arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarda uchrab, o'zbek tilidagi “e” ga ko‘ra orqa qatorda, yopiqroq va kuch bilan talaffuz qilinadigan tovushdir.

“E” unlisi ikkita jarangsiz undosh orasida va urg‘usiz bo‘g‘inlarda ko‘proq qisqaradi. Masalan: *ketāb* - kitob, *sekke* – tanga. “E” tovushi “y” undoshidan va “i” unlisidan oldin kelganda o‘ta qisqa va yopiq tovushga aylanadi. Masalan: *beist-biist*, *beyabiya* shaklida talaffuz qilinadi.

“E” tovushi so‘z oxirida o'zbek tilidagi “e” ga yaqinroq ochiq va old qatorda, yumshoqroq talaffuz qilinadi: masalan; *sine* – sina, *gume* – yanoq, *rude* – ichak va shunga o‘xshash. “A” qisqa unlisi oldindi qator quyi ko‘tarilgan, lablanmagan, nosobit tovushdur. Uning talaffuz xususiyatlari o'zbek tilidagi “a” tovushi bilan deyarli bir xil. Farqi shundaki “a” unlisi so‘z oxirida deyarli uchramaydi va hatto o‘zlashgan so‘zlardagi so‘z oxiridagi “a” tovushi “e” ga aylanib ketadi. Masalan: qovurma – *yurme*, Nadima – *nadime* va h. k. “A” unlisi so‘z boshida kelganda ochiqroq, kengroq talaffuz qilinadi. Masalan: *amal-amal*, *agar-agar* va h.k.

So‘z o‘rtasida, ayniqsa, “y” undoshi va “i” unlisidan oldin o‘ta qisqa va tor talaffuz qilinadi. Masalan: *nayā-neya* (kelma) va *naist-neist* (turma) shaklida talaffuz qilinadi.

Arab tilidan o‘zlashgan ba’zi so‘zlarda “a” tovushi til orqa tovushiga aylanib yopiqroq talaffuz qilinadi: Masalan: *ta’rix-tarix*, *ta’mīn* so‘zleri kabi.

“O” unlisi – orqa qator, o‘rta ko‘tarilgan, lablangan, qisqa tovush bo‘lib, o'zbek tilidagi orqa qator “o” tovushiga yaqin talaffuz qilinadi. O'zbek tilida fors tilidan farqli ravishda old qator “o” tovushi ham uchraydi.

“*O*” unlisi barcha qisqa unlilar kabi yopiq bo‘g‘in va urg‘usiz bo‘g‘inlarda o‘ta qisqa talaffuz qilinadi.

fors tilida	o‘zbek tilida	fors tilida	o‘zbek tilida
<i>omr</i>	umr	<i>mohem</i>	muhim
<i>ostād</i>	ustoz	<i>tabarrok</i>	tabarruk
<i>ostoxān</i>	ustuxon	<i>xānom</i>	xonim
<i>bot</i>	but	<i>xorram</i>	xurram
<i>bohrān</i>	buhron	<i>yodrat</i>	qudrat
<i>Boxārā</i>	Buxoro	<i>gorji</i>	gurji

12-mashq. Quyidagi so‘zlarni yod oling.

<i>gorbe</i>	- mushuk	<i>pedar</i>	- ota
<i>abru</i>	- qosh	<i>pesar</i>	- o‘g‘il
<i>pā</i>	- oyoq	<i>doxtar</i>	- qiz
<i>bālāpuš</i>	- palto	<i>sandali</i>	- stul, kursi
<i>dar</i>	- eshik	<i>zan</i>	- ayol
<i>zamin</i>	- yer	<i>šomā</i>	- siz
<i>barādar</i>	- aka, uka	<i>bām</i>	- tom

IKKINCHI DARS

Birinchi mashg'ulot

Fors tili yozuv tizimi

Fors yozuv tizimi arab alifbosi asosida qurilgan. Fors yozuvida 32 ta harf mavjud. Fors tilida mavjud, arab tilida ucharamaydigan undoshlarni ifodalash uchun arab tilidagi 28 ta harfga qo'shimcha to'rtta harf kiritilgan.

Arab yozuvining bosma va qo'lda yozish shakllari biroz farq qiladi. Bosma shakli ko'proq "nasx" uslubida va yozma shakli "nasta'liq" uslubida yoziladi.

Bu harflarning Yevropa tillari yozuvidan farqi shundaki, arab yozuvi o'ngdan chapga qarab yoziladi.

Fors alifbosinining bosma shakli

Harf nomi	fonema	oxirida	o'rtasida	so'z boshida	alohida shakl
alef	a, o, e, ā	ا	-	-	ا
be	b	ب	ـ	ـ	ب
pe	p	پ	ـ	ـ	پ
te	t	ت	ـ	ـ	ت
se	s	س	ـ	ـ	س
jim	j	ج	ـ	ـ	ج
chim	č	ڇ	ـ	ـ	ڇ
he(hoye hutti)	h	ه	ـ	ـ	ه
xe	x	خ	ـ	ـ	خ
dol	d	د	-	-	د
zol	z	ڏ	-	-	ڏ
re	r	ڙ	-	-	ڙ

ze	z	ز	-	-	ز
Je	Ž	ڙ	-	-	ڙ
sin	S	س	ـ	ـ	س
shin	Š	ش	ـ	ـ	ش
sod	S	ص	ـ	ـ	ص
zod	Z	ض	ـ	ـ	ض
to	T	ط	ـ	ـ	ط
zo	Z	ظ	ـ	ـ	ظ
'ayn	'	ع	ـ	ـ	ع
yayn	γ	خ	ـ	ـ	خ
fe	F	ف	ـ	ـ	ف
qof	γ	ق	ـ	ـ	ق
kof	k	ڪ	ـ	ـ	ڪ
gof	g	ڳ	ـ	ـ	ڳ
lom	l	ل	ـ	ـ	ل
mim	m	ـ	ـ	ـ	م
nun	n	ن	ـ	ـ	ن
vov	v	و	-	-	و
he (hoye hav-vaz)	h	ـ	ـ	ـ	ه
yo	y	ـ	ـ	ـ	ـ

Ikkinchı mashg'ulot

Fors alifbosidagi harflarning lotin alifbosidan farqi shundaki, harflarning alohida yoziladigan shakli, so'z boshidagi, o'rtasidagi va

oxiridagi shakllarining yozilishi bir-biridan farq qiladi. Undan tashqari fors alifbosida o'zidan keyingi harflarga qo'shiladigan (حروف متصله) va o'zidan keyingi harflarga qo'shilmaydigan harflar (حروف منفصله) mavjud.

Qo'shiladigan harflar soni 25 ta va qo'shilmaydigan harflar soni 7ta.

O'zidan keyingilari bilan birikadigan harflar: (حروف متصله)

ب، پ، ت، ث، ج، ق، ف، غ، ع، ظ، ط، ص، ض، ش، س، خ، ح، ج، ك، گ، ل، م، ن، ه، ي.

1-mashq. Qo'shiladigan harflarning alohida yozilishini mashq qiling.

2-mashq. Qo'shiladigan harflarning so'z boshidagi shakllarini yozib mashq qiling.

3-mashq. Qo'shiladigan harflarning so'z o'rtaсидаги shaklini yozishni mashq qiling.

4-mashq. Qo'shiladigan harflarning so'z oxirida yozilishini mashq qiling.

Yod olinadigan so'zlar

<i>daftar</i>	- daftар	<i>kārd</i>	- pichoq
<i>panjare</i>	- deraza	<i>kuze</i>	- ko'za
<i>āsimān</i>	- osmon	<i>sib</i>	- olma
<i>bačče</i>	- bola	<i>golābi</i>	- nok
<i>dast</i>	- qo'l	<i>gusfand</i>	- qo'y
<i>dastikeš</i>	- qo'lqop	<i>fil</i>	- fil
<i>došak</i>	- to'shak	<i>gorg</i>	- bo'ri
<i>patu</i>	- adyol	<i>alefbā</i>	- alifbo

Iboralar:

Dars-e zabāne fārsi

- fors tili darsi

<i>Dars šoru' šode ast benevisid</i>	- dars boshlandi, yozing
<i>Bebinid, dorost-äst</i>	- qarang, to'g'rimi?
<i>Guš konid</i>	- eshitig
<i>Dorost nist</i>	- noto'g'ri

Uchinchi mashq‘ulot

O‘zidan keyingilariga qo‘shilmaydigan harflar

(حروف منفصلة)

ا د ذ ر ز ڙ و : Bunday harflar quyidagilardan iborat:

Bu harflar qo‘shiladigan harflarga o‘xshab to‘rtta shakldan iborat
bo‘lmay faqat ikki – so‘z boshi va soz oxiridagi shakllarga ega:

ا، د، ذ، ر، ز، ڙ، و: Alohidə yozilishi:

ا، د، ذ، ر، ز، ڙ، و: O‘zidan oldingi harf bilan qo‘shilib yozilish shakli:

5-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va yozishni mashq qiling.

زار-راز-دار-داد-را-راد-دار-او-از-وادرار-داهار-دارو-آر-

زر-زور-دور.

6-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va yozishni mashq qiling.

مود-مادر-سرد-کارد-بابا-مروارید-زمرد-قربان-مادر-قدرت-صدر-

صبر-براپر-موی-مبارک-مشترک-توکل-ترتیب-طرز.

7-mashq. Berilgan so‘zlarni fors alifbosida yozing.

Dur, dud, rud, dour, ruz, zud, zur, dāru, rāz, dānā, panjare, āsmān, dast, del, kārd, kuze.

8-mashq. Berilgan harflardan so'z yasang. Misol:

گ و س ف ن د – گوسфенд

ن ان	پ اپ
ب اران	ب ار
ت ا ب ا ن	ت ا ب
ي ا ر	ب ا ز
ي ا د	ت ا ر
پ ا ي ا ن	پ ا د ش ا ه
پ ا ي	ب ا ز ا ر
ن ا ر	ن ا ز

To'rtinchi mashg'ulot

Cho'ziq unlilarning yozuvda ifodalanishi

Fors tilida, yuqorida zikr etilganday, 6 ta unli tovush bo'lib shulardan faqat uchta cho'ziq unli yozuvda harflar bilan ifodalanadi. Bu tovushlar i, u, ã tovushlaridir. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, qisqa unlilar yozuvda ifodalanmaydi, ularni ifodalash uchun maxsus belgililar "harakat"lardan foydalaniladi. "Harakat"lar haqida alohida mashg'ulotda tushuntirish beriladi.

Cho'ziq unlilarning so'z boshi, so'z o'rtasi va oxiridagi shakllari bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun quyida ularning har birining yozuvdagagi ifodasi alohida ko'rsatiladi. So'z boshida kelgan madda "ã" unlisini ifodalash uchun ishlataladi. "ã" cho'ziq unlisi so'z boshida "ї" shaklida, so'z o'rtasi va oxirida ! (alef) harfi bilan ifodalanadi, mas: آزاد, باران, دара, دان

"I" cho'ziq unlisi so'z boshida اي (alef ya) shaklida, so'z o'rtasi va oxirida ي (ya) shaklida ifodalanadi. ايران، ايمان، پيري، شير، شرين، زري "U" cho'ziq unlisi so'z boshida kelsa او "ا" (alef vov) harflari bilan, so'z o'rtasi va oxirida "و" (vov) harfi bilan ifodalanadi. او كراين، اوستا، نور، نيو، بيرون، خود: Masalan:

Cho'ziq unlilardan tashqari, "ou", "ey" diftonglari ham cho'ziq unlilar bilan ayni shaklda so'z boshi, o'rtasi va oxirida ifodalanadi. Masalan: so'z boshida: yuqori nuqta – [ouj] اوچ; bezori – [oubās] او باش; shunday – [eydua] ايدون; ayvon – [eyvān] ايوان.

So'z o'rtasi va oxirida:

Boshqa, o'zga – [reyr] غير; mayl – [meyl] ميل; shakl, usul – [tour] طور; davr – [dour] دور; nay, qamish – [ney] نی; o'tish – [ter] طي, garov – [gerou] گرو؛ bor – [berou] برو.

9-mashq. Quyidagi so'zlarni talaffuz qiling va ularning qaysi unlilarni ifoda etayotganligiga e'tibor bering.

[istgāh] بوسيدن; [busidan] بودن; [u] او; [uf] ارت; [budan] بودن; [inak] آشنا; [in] ابنك; [bičāre] بيجاره; [bu] ي; [āšnā] آشنا; [āftāb] آفتاب; [āhu] آهو; [birun] بيرون; [sini] سيني; [bin] بيني; [portu] پورت; [xošbu] خوشبو; [čubin] جوبين; [āyā] آي; [āfarin] آفرين; [imān] ايمان.

10-mashq. Quyidagi so'zlardagi diftonglarni fors harflarida ifodalang.

Beyt, beyn, touzih, tousif, goud, nou, rou, reyr, key, eyvān.

11-mashq. Quyidagi so‘zlarni transkripsiyada yozing.

پир، пا، بад، бар، بازو، падшах، ну، доз، руз، زир، سир، шир، پиш، رиш، ساز، قаз، راز، қар، یار، نار، یاد، داد، سود، میل، قیل، نیم، دور، رود.

So‘zlarni yod oling:

sariq - [zard]	زرد	ha - [bałe]	بله
tez, tezlik bilan - [tond]	تند	yangi - [nou]	نو
badan - [badan]	بدن	yo‘q - [na]	نه
qari - [pir]	پیر	til - [zabān]	زبان
tan - [tan]	تن	oshiqmang - [ajale nakonid]	عجله نکنید
tilla - [zar]	زر	kun - [ruz]	روز
dengiz - [daryā]	دریا	o‘ylab ko‘ring - [fekr konid]	فکر کنید
go‘zal - [zibā]	زیبا	kecha - [diruz]	دیروز
to‘la - [por]	پر	pishloq - [panir]	پیشلوق

Beshinchi mashg‘ulot

Qisqa unlilarning yozuvda ifodalananishi

Fors yozuvida “a”, “e”, “o” qisqa unlilarini ifodalovchi harflar yo‘q, ularni ifodalash uchun maxsus belgilar (harakatlar)дан о‘quv- mashq maqsadlarida foydalaniлади.

Fors tilida qo‘llaniladigan harakatlar quyidagilardan iborat:

- a) __ zabar yoki fatha “a” unlisini ifodalaydi. Mas.: در، زَر، مَن
- b) __ zir yoki kasre “e” unlisini ifodalaydi. Mas.: گَردو، چَشم، مَهْر
- c) __ pish yoki zamme “o” unlisini ifodalaydi. Mas.: پُر، دُزد، گَردد

Harakatlar ba'zan lug'atlarda so'zlarning tarkibidagi qisqa unlilarni aniqlash uchun qo'llaniladi. Fors tilidagi matnlarda harakatlar qo'yilmaydi.

Qisqa unlilarning so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida ishlatalishi o'zaro bir-biridan farq qiladi. "A" qisqa unlisi so'z boshida ! (*alif zabar*) bilan, so'z o'rtasida o'zidan oldingi undosh tepasiga - (*zabar*) qo'yish yo'li bilan, masalan: مردم ifodalanadi. "A" qisqa unlisi so'z oxirida uchramaydi. "E" qisqa unlisi so'z boshida ! (*alif zir*) bilan, so'z o'rtasida - (*zir*) bilan ifodalanadi. So'z oxirida "e" qisqa unlisi "e" (*ho-ye havvaz*) bilan ifodalanadi. "O" qisqa unlisi so'z boshida, ! (*alif pish*) bilan, so'z o'rtasida - (*pish*) bilan, masalan پر ifodalanadi. "o" qisqa unlisi so'z oxirida deyarli uchramaydi va uchragan hollarda ham "و" harfi bilan ifodalanadi.mas: [do] - ikki, تو [to] - sen va h.k. Undan tashqari ikki undosh orasida unli yo'qligini ifodalash uchun "—" "sokun" harakati qo'llaniladi. Masalan: سُرْد

12-mashq. Quyidagi so'zlarni ko'chirib yozing va undagi harakatlarni transkripsiyada ifodalang.

ابندا، آبجَد، آبَد، آبَر، آبِرو، آبِريشْم، اتفاق، اثوبُس، اثوكَش، اجاره، اجازه، اجاق، احترام، احتمال، احتياج، اختَر، اختصاص، اخْتلاف، أدَب، أدبي، اراده، بُستان، بَلَه، بَهار، پُرسيدَن، تصوُّر، خَمْر، دُرود، دَزَد، ذَهَ، رقم، زَنجير، زَن، زَمِير.

13-mashq. Quyidagi so'zlarni fors alifbosida yozing.

Asad, otubus, tond, parde, panbe, sobh, başar, karam, yalam, yermez.

14-mashq. Quyidagi so‘zlarni lug‘atdan toping va transkripsiyasiga qarab harakatlarini qo‘yib chiqing.
 ابر، اجازه، احتیاج، احق، احوالپرسی، اسباب، استاد، استراحت، اشتها،
 اکتیر، امشب، امید، بیر، بد، برف، بونج، بز، بزرگ، بلبل، پرسش، پوشک، پر،
 پشت، پل، پنجشنبه، ترجمہ، ترش، نفس، هرم، حکیم، گلبرگ، گم کردن،
 وسط.

Quyidagi so‘z va iboralarni yod oling:

Yevropa – اروپا [orupā]	ruxsat – اجازه [ejāze]
ular – آنما [ānħā]	bugun – امروز [emruz]
u – آن [ān]	so‘z – واژه [vāže]
bu – این [in]	davom – ادامه [edāme]
anor - اثار [anār]	qaytadan – دوباره [do bāre]
suv – آب [āb]	juda,o‘ta – بسیار [besyār]
bulut - ابر [abr]	ozod – آزاد [āzād]
un – آرد [ārd]	yana bir bor yozing - دوباره بتویسید [do bāre benavisiđ]
kirsam maylimi? – اجازه است؟ [ejāze ast]	tushundingizmi? - فهمیدید؟ [fahmidid]
davom ettiring - ادامه بدهید [edāme bedehid]	tushundim - فهمیدم [fahmidam]

Oltinchi mashg‘ulot

Fors tilida “x” va “h” (ҳ، ح) harflarining qo‘llanilishi

Fors va o‘zbek tillarida “x” va “h” harfi ishlataladigan so‘zlar ko‘pincha mushtarak bo‘lib, asosan, arab tilidan o‘zlashgan.

O‘zbek talabalari uchun, ayniqsa, Toshkent shevasida “x” bilan “h” harflarini ajratib olish qiyin kechadi.

Birinchi bosqichda “x” tovushi til orqa, qattiq talaffuzga ega ekanligini va “h” tovushi bo‘g‘izdan sirg‘alib chiquvchi, yumshoq talaffuz qilinadigan tovush ekanligini bilish kifoya.

Arab tilida “h” tovushi ikkita harf “ه” (*hā-ye havvaz*) va “ح” (*ho-ye hutti*) bilan ifodalanib, talaffuzda farq qiladi. Fors tilida bu farq yo‘qolgan va ikkalasi bir xilda talaffuz qilinadi.

Faqat tarixan arab tiliga taalluqli bo‘lgan so‘zlarda ularning asl shakli yozuvda saqlanib qolgan.

Fors tilida to‘g‘ri yozish uchun keyinchalik bu so‘zlarning arabcha o‘zaklarini yod olish ularning boblardagi hosilalarini bexato yozish imkoniyatini beradi.

Fors tilida qattiq “x” va yumshoq “h” tovushlarini o‘zaro almashtirish qo‘pol xatoga olib keladi, chunki so‘zning mazmuni butunlay o‘zgarib ketadi.

Forscha o‘zakdan yasalgan so‘zlarda mutlaq ”ه” harfi ishlataladi.

Arab tilidan kirib kelgan so‘zlarning ko‘philigini “ح” harfi tashkil qiladi.

15-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qituvchi bilan birga talaffuz qiling.

a) *xāb, xub, xande, xabar, doxtar, soxan, sorx, xarāb, xārej, šuxi, talx, deraxt, xun, saxt, nakeyr, xorāk, taxte, xoršid, xāli, xāne;*

b) *xar-har, šāx-šāh, xam-ham, taxt-taht, kāx-kāh, maxsus-mahsus*

c) *xāhar, xāheš, sāhebxāne, mixāham, mixāhi, mixāhad, xunxāh, xālmāhi, haramxāne, harāmxor, halālxor.*

16-mashq. Quyidagi so‘zlarni transkripsiya qiling.

دختر، خانه، درخت، تخته، کارخانه، نخن، خربزه، هندوانه، خروس، خیلی،

خسته، خوب، خراب، اختیار، احتمال، هر، همیشه، هنوز، مهم، همراه، همانه،

ھمت، تحسین، احسان، نجات، ھرام، ھبودи، سخت، سهل، دل، رحم، زخمی، ظاهر، سهراپ، صحیح، فخر، قهر، ناهار، حاضر، خرم، محترم، احتیاج، خطر.

17-mashq. Quyidagi so‘zlarni fors alifbosiga ko‘chiring.

Harf, hesāb, houle, heyvān, rāh, xārej, xāle, xāmuš, xodā hāfez, xabar, xormā,

xābgāh, xāhar, xorāk, xošbaxti, xošhāl, xiyābān, dahr, hijdah, hadye, hafdhah, hafte, hawāxāh, maxluq, xāheš, mihmān.

Quyidagi so‘z va iboralarni yod oling:

yo‘q - نخیر [naxeyr]	qiz - دختер [doxtar]
qovun - خربزه [xarboze]	uy - خانе [xāne]
tarvuz - هندوانه [hendovāne]	daraxt - درخت [deraxt]
xo‘roz - خروس - [xorus]	korxona - کارخانе [kārxāne]
taxta - تخته [taxte]	charchadingizmi? - خسته شدید - [xaste šodid]
juda - خیلی - [xeyli]	
yaxshi - خوب [xub]	ha, charchadim - بله، خسته شدم [bale xaste šodam]
marhamat, taxtaning oldiga chiqing - بفرمانید پای تخته بیايد [befarmāyid pāye taxte biyāyid]	yo‘q charchamadim - نخیر، خسته نشدم [naxeyr xaste našodam]
taxtani arting - تخته را پاک کنید - [taxterā pāk konid]	kechirasiz - ببخشید - [bebaxšid]
juda yaxshi خیلی خوب, بسیار خوب - [xeyli xub, besyār xub]	

UCHINCHI DARS

ع (ayn) harfini yozish va o'qish qoidalari

ع (ayn) harfi arab tilida sirg‘aluvchi o‘ngach tovushini ifodalab, fors tilida o‘z talaffuz xususiyatlarini saqlab qolmagan. Faqat aholining ba‘zi tabaqalari talaffuzida arab tilidagi xususiyatlarini ilg‘ab olish mumkin.

ع harfi faqat arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar imlosida saqlangan bo‘lib, fors tili va boshqa tillarga mansub so‘zlarda uchramaydi.

a) ع (ayn) harfi so‘z boshida undoshlardan oldin kelganda qisqa “*a*”, “*e*”, “*o*” tovushlarini ifodalaydi: mas: علاقه [alāqe] – qiziqish, علم [elm] – ilm, عمر [omr] – umr.

b) So‘z o‘rtasida ikkita undosh orasida kelganida cho‘ziq “*a*”, “*e*”, “*o*” unlilalar shaklida yoki ikkita qisqa unli shaklida talaffuz qilinadi: mas: تعلیم [ta’lim] – ta’lim, معلم [moa’llem] – muallim, معمار [me’mār] – me’mor, بعد [bo‘d] – masofa. Cho‘ziq unlilardan keyin qisqa unli shaklida o‘qiladi: masalan: ساعت [sāat] – soat, فاعل [fā’el] – harakatchan.

c) So‘z oxirida undoshlardan keyin ع (ayn) harfi ajratish belgisi sifatida undoshdan so‘ng yengil tin olish bilan ifodalanadi. mas: رفع [raf] – qaytarish, بع [rob] – chorak, منع [man] – man qilish.

Cho‘ziq unlilardan keyin so‘z oxirida ع (ayn) harfi odatda talaffuz qilinmaydi. mas: شروع [šoru] – boshlash, سریع [sari‘] – tez.

So‘z boshida alif harfidan oldin kelsa cho‘ziq “*ā*” shaklida o‘qiladi. و (vov) harfidan oldin diftong “*ou*” shaklida yoki cho‘ziq “*ū*” shaklida o‘qiladi. ي (yāy) harfidan oldin kelsa diftong “*ey*”

shaklida yoki cho'ziq "i" shaklida talaffuz qilinadi. Mas: عاشق [āšeq]
– oshiq, عن [oun] – ko'mak, عود [ud] – ud daraxti, عیب [eyb] – ayb,
عیسی [isā] – Iso.

d) So'z o'rtasida va oxirida ى (ayn va alif), و (ayn va vov) va ئ (ayn va ya) birikmasi kelsa undoshlardan so'ng ajratish belgisi qo'yiladi.

Masalan: مسعود [mas'ud] – baxtli, تبعید [tab'id] – badarg'a, افعی [af'i] – zaharli ilon, انعام [en'ām] – sovg'a.

e) (alif va ayn) shaklida kelsa cho'ziq "e" yoki "ə" tovushini ifodalaydi. Mas: اعتبار [e'tebār] – e'tibor, اعطای [ə'iā].

1-mashq. Quyidagi fors va o'zbek tilidagi "ع"(ayn) harfi mavjud so'zlarning talaffuziga e'tibor bering.

alohida - ['alahedde] عليهذه

uzr - [o'zr] عذر

umr - ['omr] عمر

Iraq - ['arāq] عراق

umumiyy - ['omumi] عمومي

aziz - ['aziz] جزء

udda - ['ohde] عده

asr - ['asr] عصر

hayit - ['eyd] عبد

aloqa - ['alāye] علاقه

oynak - ['eynak] عینک

alomat - ['alāmat] علامت

- sho'ba – [ʃo'be] شبه
 ilm - ['elm] علم
 she'r - [še'r] شعر
 odat - [ā'dat] عادت
 fe'l - [fe'l] فعل
 odil - [ā'del] عادل
 sayi harakat - [sa'y] سعي
 ud - ['ud] عود
 da'vat - [da'vat] دعوت
 avrat - [ourat] عورت
 in'om - [en'ām] انعام
 taajjub - [ta'ajjob] تعجب
 mas'ud – [mas'ud] مسعود
 ta'rif - [ta'rif] تعریف
 e'tiqod - [e'teyād] اعتقاد
 ta'til – [ta'til] تسطیل
 e'timad - [e'temād] اعتماد
 jam - [jam'] جم
 a'lo hazrat - [a'lā hazrat] اعلیٰ حضرت
 man - [man'] منع
 a'mal - [a'māl] اعمال
 tab - [tab'] طبع

2-mashq. Quyidagi so‘zlarni arab alifbosiga ko‘chiring.

‘oyāb, na’lbeki, ‘asr, ra’d, sā’at, šoru’, ma’ni, ta’rif, ta’ne, tam’e, ‘omr, ā’jel, ‘esmat, e’terāf, e’teyād, i’sā, ā’ref, ā’lem, ma’ruj, ma’äl, ma’mul, a’lā, tolu’.

Quyidagi so‘zlarni yod oling:

likopcha - [na’lbeki] نلپىكى

burgut - [‘oyāb] عقاب

lavlagi - [čoyondar] چەنلىر

zog‘,qarg‘a - [zāg] زاخ

sharq - [šary] شرق

limon - [limu] ليمو

g‘arb - [yarb] غرب

1) tovuq; 2) qush - [mory] مرغ

g‘oz - [yāz] غاز

1) qog‘oz; 2) xat - [kāyaz] كاغذ

1) asr(kechki payt); 2)davr,asr - [‘asr] عصر

yashin - [ra’d] رعد

soat - [sā’at] ساعت

boshlanish - [šoru] شروع

apelsin - [portoyāl] پورتقال

mandarin - [nārangī] نارنگى

اين عبارات را ياد بگيريد

اول بنويسيد بعد بخوانيد [avval benevisid ba'd bexānid] - Avval yozing, keyin o'qing.

شما درست تلفظ مي كنيد [šomā dorost talaffuz mikonid] - Siz to'g'ri talaffuz qilyapsiz.

مانع نشويد [māne' našavid] - Xalaqit bermang.

بنويس، بنويس، آخراً مي شوي خوشنويس [Benevis, benevis, ḥixer mišavi xošnevis] - Ko'p mashq qilgan xushxat bo'lur.

TO'RTINCHI DARS

Ba'zi birga kelgan harf birikmalarining o'qilish qoidalari

1. Fors tilida Ӯ harfidan keyin ب harfi kelsa, bunday birikma “*m*” shaklida o'qiladi. Mas: [šambe] شبه yozilishi “šanbe”, [gombad] گنبد yozilishda “gonbad” va sh.o‘.

2. خوا birikmasi ba'zi so'zlarda “*xə*” shaklida talaffuz qilinadi. Mas: [xāb](uyqu), خوارزم [Xārazm] va sh.o‘. Lekin har doim shunday talaffuz qilinmaydi. Mas: خواص [xavās] o'qiladi, [xās] o'qilmaydi.

3. خوي birikmasi ba'zi bir forscha so'zlarda “*x*” shaklida o'qiladi, ya'ni “*v*” harfi tushirib qoldiriladi. Mas: خويش [xiš] – o'z shaklida, خويشي [xiši] – qarindoshlik shaklida talaffuz qilinadi. Lekin har doim emas. Mas: خوي [xuy] - fe'l-atvorda “*v*”, “*u*” shaklida o'qiladi.

4. Ba'zi fors so'zlarida o'rtada kelgan “*و*” cho'ziq “*u*” shaklida emas, qisqa “*o*” shkalida talaffuz qilinadi. Mas: خود [xod] – o'zi; agar [xud] talaffuz qilinsa uning ma'nosи o'zgarib, “dubulg'a” ma'nosini ifodalaydi. خوراك [xorāk] – ovqat, yemish va sh. o‘.

5. Ikkita cho'ziq unli ketma-ket kelganda ularning orasida “*y*” tovushi paydo bo'ladi. Mas; گويя [guya] – gapiruvchi, پاي [pāye]-poya, بيا [biyā] – kel va sh. o'x. holatlarda.

1-mashq. Quyidagi so'zlarni transkripsiyada bering.

ا) تبىل، گنبد، پىنه، يكىشىپ، تېك، سېنە.

ب) خواهش، خواروبار، خواندن، خواب، خواهر.

ج) خويش، خويشا وندي، خويشق، خويشىگرى.

د) مايه، بياپان، خياپان، سياه، پياپان، ميان،.

ه) طبقة، تخته، شبه، كتابخانه، نامه، كارخانه، كوزه، پنجره گربه، ميوه،
جعه، تشنه، گلشته، منبع، شكجه.

2-mashq. Quyida berilgan so‘zlarni arab-fors imlosiga ko‘chiring.

Panjare, mive, kuze, ketabxâne, nâme, taxte, šambe, gorosne, to, pâlto, râdio, kârxane, gorbe, muze.

Yod oling:

intilish - سعي - [say']	xat - نامه [nâme]
bino - عمارت - [emârat]	taroq - شاهه [šâme]
yelka - شانه - [šâne]	shoir - شاعر - [šâer]
bodring - خيار - [xiyâr]	ko‘cha - خيابان - [xiyâbân]
piyoz - باز - [piyâz]	she'r - شعر - [še'r]
kutubxona - كتابخانه - [ketâbxâne]	tor ko‘cha - گوچه - [kuče]
bunday - اينطور - [intour]	bilim- دالش [dânes]
opa-singil - خواهر - [xâhar];	suhbat - صحبت - [sohbat]

Eslab qoling:

Shovqin qilmang - سرو صدا نکنيد - [sar-o sedâ nakonid]

O‘qituvchiday yozishga harakat qiling - كوشش كىد مانند استاد بتويسيد -
[kušeš konid mānand-e ostād benevisid].

BESHINCHI DARS

Fors – arab yozuvida ishlatiladigan ba'zi harakatlar

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, fors-arab yozuvida qisqa unlilar harakatlar bilan ifodalanadi. Harakatlar—bu harflarning ustiga yoki tagiga qo'yiladigan belgilar bo'lib, muayyan bir vazifani bajaradi.

- a) Satr ustiga qo'yiladigan “” belgisi “tashdid” deb nomlanadi va ikkilik harflarni ifodalaydi. Mas: مدت [moddat]- muddat; در [dorr]-dur; حد [hadd]-chegara va sh.o‘.
- b) Fors tilida qo'llaniladigan ba'zi arab o'zlashmalarida “” belgisi oxirgi alifdan so'ng qo'yilib, “tanvin” deb ataladi va [an] deb o'qiladi. Mas: راسماً [rasman]- rasman, شخصاً [šaxsan]-shaxsan.
- Bunday so'zlar o'zbek tilida ham uchraydi.
- c) Asosan so'z boshida va ba'zan so'z o'rtasida qo'llaniladigan “~” belgisi “madda” deb ataladi va cho'ziq “~” tovushini ifodalaydi. Mas: آب [āb]-suv, آمدن [āmadan]-kelmoq, آن [teātr]-teatr, جالت [jalālatmaāb]- janobi oliv;
- d) “hamze” deb ataluvchi “ء” belgisi arab tilidan o'zlashgan ba'zi so'zlarda uchraydi va, asosan, unli harflarning cho'ziq talaffuzi yoki ayirish belgisi vazifasini bajaradi. Mas: تاریخ [tā'rix]- tarix, تأهی [ta'hir]-kechikish, رئيس [ra'is]-rais, مسؤول [mas'uł]-mas'ul va h.k. So'z boshida va so'z oxirida kelgan “hamza” belgisi ko'pincha tushirib qoldiriladi. Mas: امر [amr] - buyruq yoki جزء [joz] - bo'lak so'zlarida. “Hamza” harakati ba'zan forscha so'zlarda qo'llanilib, hozirgi fors imlosida ularni “ى” harfi bilan almashtirish tavsiya qilinadi. Mas: گونى emas [pāyin]-qu'yি va ئىن: emas گويي [guyi]- go'yo shaklida qo'llash to'g'ri bo'ladi.

1-mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va transkripsiya shaklida ko‘chiring.

А- بچе، خط، اول، سر، حام، نقاش، بنا، حس، حق، شدت.

Б- كاملاً، ظاهراً، حتماً، مخصوصاً، غالباً.

Ж- مامول، رؤسا، مسئول، مستوليت، ما مون، جزئي.

2-mashq. Arab-fors yozuviga ko‘chiring.

Avval, dovvom, sevvom, nayyāš, bannā, pāiz, āine, miāyi, miguyi, bayyāl, horriyat, makkār, jabbār, nazzāre.

Yod oling:

qayerda?- [kojā] كجا

kecha - [diruz] دیروز

oyna - [āyine] آینه

qish - [zemestān] زمستان

butunlay - [kāmelan] كاملاً

o‘tgan kuni - [pariruz] پریروز

muzey - [muze] موزه

rassom - [nayyāk] نقاش

choy - [čāyi] چای

bu yerda - [injā] اینجا

uyqu - [xāb] خواب

harbiy - [nezāmi] نظامی

kuz - [pāyiz] پاییز

u yerda - [ānjā] آنجا

bugun - [emruz] امروز

maydon - [meydān] میدان

yoz - [tābestān] تابستان

xat - [nāme] نامه

IKKINCHI QISM

BIRINCHI DARS

Birinchi mashg‘ulot

Ot kesimli sodda yig‘iq gaplar

Kesimi fe’ldan boshqa so‘z turkumida ifodalangan gaplar ot kesimli sodda yig‘iq gaplar deyiladi. Ot kesimli gaplarni hosil qilishda avval ega, so‘ng ot kesim yoziladi.

От kesimdan so‘ng bog‘lama است [ast] keladi. Demak, ot kesim ikki qismdan iborat bo‘ladi, от qism+ bog‘lama است [ast]. Masalan: احمد شاگرد است [Ahmad šägerd ast]. Mazkur jumlada Ahmad - ega, šägerd ast - ot kesim. Ot kesim shägerd va ast bog‘lamasining birikmasidan tashkil topgan.

9-mashq. Quyidagi o'zaklardan oltinchi bob aniq nisbat sifatdoshlarini yasang va tarjima qiling.

ج و ز - ح د ب - خ ل ف - د و ل - ر ك م - ر د ف - ش ب ه -
ع د ل - ف و ت - ق ب ل - ق ع د - ك ث ف - ل ط م - م ر ض - م
ي ل - ن س ب - و ز ن - و ف ق - و ر د - و ر ث .

10-mashq. Quyidagi jumlalarni fors tiliga yozma tarjima qiling:

Havo sovuq bo'lsa ham, biz stadionga bordik. Hamma yig'ilganiga qaramay, majlis o'z vaqtida boshlanmadı. Bu filmni ilgari tomosha qilganimga qaramay, bari bir sen bilan bugun kinoteatrga boraman. Garchi uni taklif qilmagan bo'lsam ham, u kecha do'stlarim bilan biznikiga keldi. Qahva issiq bo'lishiga qaramay, Habib uni tez-tez ichib, o'rnidan turdi. Guruchli ovqatlarni juda yaxshi ko'rishimga qaramay, bugun palov yemadim. Qornim juda och bo'lishiga qaramay, universitet oshxonasida tushlik qilmadim.

To‘rtinchi mashg‘ulot

Arab tilida otlarning ikkilik shakli

Arab tilida otlar fors tilidagidan farqli ravishda birlik va ko‘plik shakllaridan tashqari ikkilik shakliga ham ega bo‘la oladi. Ikkilik shakli **بَنْ -eyn** qo‘sishmchasi yordamida yasalib, o‘sha predmet yoki shaxsning soni ikkita ekanligiga ishora qiladi:

طرف *taraf* – taraf, tomon → طرفین *tarafeyn* – ikki taraf, ikki tomon.

دولت *doulat* – davlat → دولتین *doulateyn* – ikki davlat va h.k.

Bunday ikkilik shakllarining ba’zilari shu turishicha fors tiliga ham o‘rnashib qolgan va keng ishlataladi.

﴿ be old ko‘makchisining unli tovushdan boshlanuvchi so‘zlarga qo‘shilishi

﴿ be old ko‘makchisini unli tovushdan boshlanuvchi so‘zlarga qo‘sishda uch xil usuldan foydalanish mumkin:

a) ﴿ be old ko‘makchisini alohida yozib, talaffuzda keyingi so‘z bilan bir butunlikda o‘qish mumkin. Masalan, او ﴿ be+u – unga.

b) آن ﴿ betān – unga; این ﴿ betān – bunga va h.k.

v) بَدَان ﴿ bedān ko‘makchisini unli tovushdan boshlanadigan so‘zlarga qo‘sishda دَاهِي   dāhī harfi orttiriladi. Masalan:

bedu بَدُو او ﴿ be+u=bedu

bedān بَدَان ﴿ betān=bedān

bedin بَدِين ﴿ betān=bedin va h.k.

یای وحدت

yā-ye vahdatning izofiy birikmalar tarkibida ishlatalishi

izofiy birikmalarning, asosan, oxiriga qo'shiladi.

Masalan:

دانشجوی خوب *dānešju-ye xubi* – Bir yaxshi talaba va h.k.

Ammo ba'zida nutqning ifodalanishini va ta'sirchanligini oshirish uchun يای وحدت bevosita aniqlanmishdan keyin ham qo'yilishi mumkin. Masalan:

دانشجوئی خوب *dānešju-i xub* – Yaxshi bir talaba.

ورزش

رفیق اکبر هر روز صبح ورزش می کند، ساعت هفت برو می خیزد، پس از چند دقیقه خودرا برای ورزش بدین حاضر می نماید. وقتی که برای ورزش حاضر شد، او پاهای خودرا به طرفین باز کرده و دست ها را از آرنج به شانه خم می نماید. بدین ترتیب، چند بار به چپ و به راست خم می شود. بعد به پشت می خوابد و پاهای خود را آهسته باز خوده و آهارا از سر زانو به روی شکم می کند. هر دفعه با حرکتی، نفس عمیق می کشد و با حرکت دیگر، نفس را از سینه خارج می کند.

او برای هر عضوی از اعضای بدن، یعنی از انگشتان دستها و پاهای گرفته، تا سینه و گردن، حرکت مناسبی می نماید. هر روز صبح بیش از بیست دقیقه ورزش می کند و پس از آن دوش آب سرد می گیرد. اکبر، جوان سالمی است، بدن زیبایی دارد و نیرومند است. ورزش هم به او کمک می نماید و به نیرویش میافزاید. او چنان به ورزش روزانه عادت کرده است که اگر یک روز صبح

ورزش نکند، تمام آن روز خود را خسته حس می کند و اوقاتش تلخ است. اکبر، دانشجویی جدی است و خوب درس می خواند. تمام استادان همیشه از او راضی هستند. اگرچه بیشتر اوقات، مشغول حاضر کردن درس های خود می باشد، برای ورزش هم وقت پیدا می کند. او علاوه بر ورزش بدین، فوتبال و شنا را خیلی دوست دارد و هر هفته چند بار بدین ورزش ها مشغول می شود. مثلاً دیروز او در مسابقه ی شنای دانشگاه شرکت کرد. وقتی که از مسابقه بر می گشت، من اورا دیدم. تبسمی بر لب داشت و خیلی خوشحال بود. به او گفتم: مثل اینکه در مسابقه پیروز شده ای و شاد و خوشحالی. خندید و جواب داد: چرا تعجب می کنی؟ تو که می دانستی من تصمیم داشتم در این مسابقه پیروز شوم. من به او تبریک گفتم و قلم خودنویس خود را به او هدیه کردم. اکبر از من تشکر کرد و ما با هم به خانه بر گشتم.

Leksik izohlar

ساختن *nemudan*-ko'rsatmoq; ko'rinoq *säxtan-*
qurmoq, *tayyorlamoq* fe'llari *kardan-qilmoq* fe'li ishtirokida
murakkab fe'llar tarkibida fe'lning umumiy ma'nosiga hech qanday
ta'sir qilmagan holda *kardan* fe'li bilan o'rin almashishi
 mumkin. Boshqacha qilib aytganda, *ساختن* va *غودن* fe'llari
murakkab fe'llarning fe'l qismi vazifasini bajarayotganida bir-biriga
 sinonim hisoblanadi.

حاضر = *häzer kardan* = حاضر غودن = *häzer nemudan* = حاضر کردن
 ساختن *häzer säxtan* – *tayyorlamoq*.

خم = *xam nemudan* = خم کردن = *xam kardan* – *bukmoq*, *egmoq*
 va h.k.

2. اوقات *ouyāt* so‘zi وقت *vayt* “vaqt” so‘zining arabcha siniq ko‘plik shaklidir. اوقات so‘zi bundan tashqari “hol, holat” ma’nolarini ham ifodalashi mumkin:

در بسیاری [از] اوقات *dar besyāri [az] ouyāt* – ko‘pincha, ko‘pgina hollarda.

ارقات *ouyāt* so‘zi frazeologik birikmalar tarkibida “kayfiyat” ma’nosida ham qo‘llaniladi:

ارقام تlux است. اوقات *ouyātam talx ast* – a) kayfiyatim yomon; b) jahlim chiqib turibdi.

Yuqoridagilardan tashqari اوقات *ouyāt* so‘zi *ouyāt-e talx*-kayfiyati buzuq; jahli chiqqan so‘zi tarkibida ham ishlataladi.

11-mashq. Quyidagi so‘zlarning sinonimlarini aniqlang va qator qilib yozing.

بدین ترتیب – برخاستن – برگشتن – حاضر کردن – شنا – نیرومند – پیروز شدن – هدیه کردن – تشکر کردن – تعجب کردن.

12-mashq. matnidan I, II, III, IV, V, VI boblar va joy hamda vaqt ma’nolarini beruvchi arabiy shakllarga oid so‘zlarni toping va ko‘chirib yozing.

13-mashq. “Mening ertalabki kun tartibim” mavzusida hikoya tayyorlang.

14-mashq. Nuqtalar o‘rniga chap ustundagi tegishli so‘z va so‘z birikmalarini kerakli shaklda qo‘yib, ko‘chirib yozing va yozma tarjima qiling.

من چنان به... عادت کرده ام که اگر یك روز صبح	از بچه های کوچک
ورزش نکنم، تمام آن روز خود را خسته حس	گرفته
می کنم. همه افراد خانواده ی ما... تا پدر بزرگ و	نفس عمیق کشیدن

مادر بزرگ صبح ورزش می کنند، من ورزش بدین
 را... شروع می کنم.
 اول پاهای خود را باز کرده و دسته را از... به شانه
 خم می نگیرم. بعد چند بار به چپ و راست...، با یک
 حرکت...، با حرکت دیگر.... بعد از آن من به...
 می خواهم و پاها را از زانو به روی شکم خم می کنم.
 علاوه بر آن، چند حرکت برای... و سینه
 می کنم. من زیاد ورزش می کنم و ورزش در کار و
 تحصیل به من... و به نیروی من افزایید. برادرم اکبر
 هم ورزش را دوست دارد. با آنکه او دانشجوی...
 است و زیاد کار می کند، برای ورزش هم همیشه
 وقت پیدا می کند. او پسری... است و همیشه قوی
 به نظر می آید و... چند ماه پیش، برادرم در
 مسابقه ی شنا شرکت کرد و... اگرچه او فقط چند
 سال است که شنا می کند، ولی در این مسابقه... من
 چنان از پیروزی او... که حتی فراموش کردم به او
 تبریک بگویم. همه ی دوستان و رفقاء از پیروزی اکبر
 خیلی... شدند.

15-mashq. Quyidagi jumlalarni fors tiliga yozma tarjima qiling.

Jismoniy tarbiya menga ish va o'qishimda juda yordam beradi. Guruhimizning barcha talabalari ertalab badantarbiya qiladilar. Biz badanimizning har bir a'zosi, ya'ni oyoq va qo'llarimiz barmoqlaridan boshlab to bo'yin va boshimizgacha mos harakat va mashq qilamiz. Har bir harakat bilan chuqur nafas olamiz va keyingi harakat bilan uni chiqaramiz. Biz chapga va o'ngga egilamiz,

qo'llarimizni tirsakdan bukamiz, orqaga yotamiz, oyoqlarimizni tizzadan bukamiz va boshqa harakatlarni bajaramiz. Badantarbiyadan so'ng sovuq suvli dushga tushish kerak.

Do'stim nafaqat badantarbiya qiladi, balki sport bilan jiddiy shug'ullanadi va musobaqalarda ishtirok etadi. O'tgan yili u suzish musobaqalariga qatnashib, birinchi o'rinni olgan edi.

Beshinchi mashg'ulot

گفتگو

- احمد تو هر روز ورزش می کنی؟
 - بله، من هر روز صبح، ده دقیقه ورزش بدینی می کنم.
 - تو به اتفاق دانشجویان دیگر ورزش می کنی؟
 - نخیر، من تنها در اطاق خود ورزش می کنم.
 - مگر احتیاج به دستور استاد ورزش نداری؟
 - من تمرین های زیادی را می دانم و خودم آنها را به کار می برم.
 - برای هر یک از اعضای بدن، تمرین معینی لازم است؟
 - بله، تقریباً همین طور است، هر تمرینی برای عضو معینی انجام می شود که فایده‌ی پیشتری دارد، بعضی دیگر هم برای سینه و شکم پیشتر مفید هستند.
 - آیا به ورزش های دیگر هم علاقه ای داری؟
 - من شنا می کنم، بسکتبال بازی می کنم و الان ملتی است که مشغول کشی هستم.
 - تا کنون در مسابقات کشتی شرکت کرده ای؟
 - بله، دو مرتبه است که در مسابقه‌ی کشتی دانشگاه شرکت کرده ام. دفعه‌ی اول، موقعي نداشتم، ولی دفعه‌ی دوم پیروز شدم و اینک خودرا برای

مسابقه با کشتی گیران باشگاه های دیگر تاشکند آمده می کنم. امیدوارم این دفعه هم پیروز بشوم.

- فوتبال هم بازی می کنی؟

- دو سه سال پیش، کمی فوتبال بازی می کردم، ولی بعداً آن را ادامه ندادم.

- از میان رفقاء ما، کسی خوب فوتبال بازی می کند؟

- از رفقاء کلاس، ما کسی را غنی شناسم که فوتبالیست باشد. ولی از سال ششمی دانشکده ی ما، حسن فوتبالیست خوبی است. او عضو باشگاه «پخته کار» می باشد و در چند مسابقه ی فوتبال با تیم های شهرهای مختلف شرکت کرد. تیم باشگاه «پخته کار» در این مسابقات پیروز شد. متوجه تیم آنها از حسن خیلی راضی است و امیدواری زیادی به موفقیت آینده ی او دارد.

- آیا بُکس بازی هم می کنی؟

- نه، من بُکس بازی نمی کنم.

- یعنی، هیچ وقت بُکس بازی نکرده‌ی؟

- نه، هیچ وقت به بُکس علاقه‌ای نداشتم. حالا حسن تو بگو بینم، چه نوع ورزش را دوست داری؟

- من همیشه تیس بازی می کنم و این ورزش را دوست دارم.

- موفقیتی هم داری؟

- بله، یکشنبه‌ی پیش در مسابقه‌ی تیس رومز دانشگاه شرکت کردم و نفر چهارم شدم.

- پس موفقیت بزرگی کسب کردی. زیرا دانشجویان دانشگاه ما تیس بازان خوب و معروفی هستند. در بین آنها نفر چهارم شدن مهم است، موفقیت بیشتر تو را آرزو می کنم.

Leksik izohlar

1. اتفاق *ettefāy* soz'i:

1) hodisa, tasodif; 2) o'zaro rozilik; 3) ittifoq, birlashma kabi mustaqil ma'nolarni ifodalash bilan bir qatorda murakkab izofali old ko'makchilar tarkibida ham ishlatalishi ham mumkin: بـه اتفاق *be ettefāy-e* – birgalikda, bilan, birga. Masalan:

بـه اتفاق استاد *be ettefāy-e ostād* – Ustoz bilan birgalikda va h.k.

2. دستور *dastur* so'zi umumiy "ko'rsatma, ruxsat, qoida" ma'nosiga ega bo'lib, tegishli birikmalarda o'ziga xos ma'no yo'nalishlarini ifodalaydi:

دستورالعمل *dastur ul-'amal* – ko'rsatma

دستور جلسه *dastur-e jalase* – majlis kun tartibi

دستور خوراқ *dastur-e xorāk* – ovqatlanish tartibi

دستور روز *dastur-e ruz* – kun tartibi

دستور زبان *dastur-e zabān* – grammatika

16-mashq. Quyidagi she'rni tarjima qilinig va yod oling.

بني آدم اعضای یکدیگرند که در آفرینش زیک گوهرند

چو عضوی به درد آورد روزگار دگر عضوهارا غساند قرار

تو گز مختت دیگران بیغمي نشاید که نامت خند آدمی

17-mashq. گفتگو matnidan arab fe'l boblariga oid shakllarni toping va ko'chirib yozing.

18-mashq. O'zingiz yoki do'stlaringiz shug'ullanadigan va sevadigan sport turlari haqida so'zlab bering.

19-mashq. Quyidagi jumlalarni fors tiliga tarjima qiling.

Biz Hasan bilan talabalar yotoqxonasida yashaymiz. Men Hasan bilan turishga roziman. Biz sportni juda yaxshi ko'ramiz. Menga ko'proq kurash, Hasanga esa boks yoqadi. Hasan bilan turli musobaqalarga qatnashamiz. Masalan, men ikki oy oldin kurash bo'yicha universitet birinchiligidagi ishtirok etdim. Hasan va boshqa do'stlarim menga muvaffaqiyat tilaganiga qaramay, men g'olib chiqsa olmadim. Hasan boksdan tashqari suzish bilan ham shug'ullanadi. U juda yaxshi suzuvchidir. Yaqinda u suzish bo'yicha Toshkent shahar birinchiligidagi qatnashishi kerak. Umid qilamanki, u g'alaba qozonadi. Nafaqat mening o'zim, balki barcha do'stlarimiz Hasanga mazkur musobaqalarda muvaffaqiyatlar tilaydilar.

Qo'shni xonada guruhimizning boshqa ikki talabasi yashaydi. Ularning har ikkisi yaxshi futbolchilardir va universitet futbol jamoasida o'ynaydilar.

O'N TO'QQIZINCHI DARS

Birinchi mashg'ulot

در باغ و حش تاشкند

روز يكشنبه، وقتی که با دخترم لیلی می خواستم برای تماشای باغ و حش تاشکند بروم، دختر کوچکم مریم خواهش کرد اورا هم با خود برم. به او گفتم عزیزم! باغ و حش تاشکند خیلی بزرگ است. تو زود خسته می شوی. مریم در جواب گفت: باباجان، مگر تو غمی دانی در باغ و حش تاشکند، تمام وسایل تفریح و استراحت، مخصوصاً برای کودکان فراهم است. همیشه شاگردان کلاس ما با پدران و مادران خود به آنجا می روند و هیچ خسته غمی شوند و خیلی راضی بر می گردند و می آیند برای دیگران تعریف می کنند. به او گفتم: اگر اینطور است بیا بروم. مریم خوشحال شد و زود لباس پوشید و حاضر شد. با هم از خانه بیرون آمدیم و سوار اتوبوس شدیم. تا نزدیک باغ و حش رانیم و در آنجا از اتوبوس پیاده شدیم آنگاه بیت ورودی خریدیم و وارد باغ و حش شدیم. واقعاً باغ و حش تاشکند خیلی وسیع و بزرگ است و یکی از بزرگترین باغ و حش های آسیای مرکزی است. بزرگی باغ و حش تاشکند به حدیست که در یک دفعه غمی توان تمام بخش های آن را تماشا کرد. برای این که مردم خسته نشوند، در باغ و حش تاشکند، مغازه ها و کیوسک های روزنامه و کتاب فروشی و کافه های زیادی است تا مردم با استفاده از آنها، استراحت و تفریحات گوناگون مهیا است، اسباب بازی های زیادی وجود دارد و کودکان با آنها مشغول می شوند و خستگی را فراموش می کنند. مثلاً

در شکه هایی است که به آنها به جای اسپ، الاغ بسته اند و کودکان با میل زیاد، بدون ترس سوار آنها شده و میدانی را چند بار دور می زنند و شادی می کنند. علاوه بر این، چون هر بخشی از باغ و حش، مخصوص یکی از انواع حیوانات است و حیوانات باغ و حش تاشکند، گوناگون و فراوان هستند، انسان از دیدن آنها لذت می برد، و مخصوصاً هر بخشی را چنان ترتیب داده اند که از کارمندان آن بخش در باره‌ی حیوانات، می توان معلومات کسب غود و این نه تنها برای کودکان، بلکه برای همه جالب و مفید است.

Leksik izohlar

1. سوار شدن *savār šodan* “(biror-bir transport turiga) minmoq, o’tirmoq”, asosan, distant holatda ishlataladi. Bunda سوار شدن fe’lining ismiy qismi سوار شدن va fe’liy qismi bir-biridan ajralib, tegishli to’ldiruvchi (transport vositasini ifodalovchi so’z) سوار bilan izofa orqali biriktiriladi:

من سوار اتوبوس شدم. *man savār-e otubus šodam* – Men avtobusga chiqdim.

باید سوار مترو شد. *bāyad savār-e metro šod* – Metroga o’tirish kerak.

2. پیاده شدن *piyāde šodan* “(biror-bir transport vositasidan) tushmoq, chiqmoq” fe’li doimo kontakt holatda ishlataladi va vositali to’ldiruvchining (ya’ni transport vositasini ifodalovchi so’z) ji az old ko’makchisi bilan ishlatalishni talab qiladi:

از اتوبوس پیاده شدم. *az otobus piyāde šodam* – Men avtobusdan tushdim (chiqdim) va h.k.

3. لذت بىردىن *lazzat bo'rdan*-“lazzat olmoq, maza qilmoq” fe'l'i ham to‘ldiruvchining az old ko'makchisi bilan ishlatalishini talab qiladi:

من از اين فيلم لذت بىردىم. *man az in film lazzat bordam* – Men bu filmdan lazzat oldim (Men bu filmni maza qilib tomosha qildim).

1-mashq. Matn tarkibida ushlatalig'an yä-ye masdari yordamida yasalgan mavhum otlarni toping va ko'chirib yozing.

2-mashq. Matn tarkibida ishlatalig'an arab fe'l boblariga oid shakllar, i an qo'shimchasi yordamida yasalgan ravishlarni toping va ko'chirib yozing. Tegishli o'zaklardan yasalgan boshqa so'zlarni aniqlang.

3-mashq. Quyidagi so'z va so'z birikmalari ishtirokida jumlalar tuzing.

- ۱ - من - اتوبوس - سوار شدن
- ۲ - تو - اتوبوس برقى - سوار شدن
- ۳ - او - مترو - سوار شدن
- ۴ - ما - اتوبوس - پياده شدن
- ۵ - شما - اتوبوس برقى - پياده شدن
- ۶ - آما - مترو - پياده شدن
- ۷ - من - اين فيلم نو - لذت بىردىن
- ۸ - تو - ديدن حيوانات باغ وحش - لذت بىردىن
- ۹ - دانش آموزان - قماشاي باغ وحش - لذت بىردىن

4-mashq. Quyidagi jumlalarni fors tiliga tarjima qiling.

Toshkent hayvonot bog'i shaharning shimoliy-g'arbiy qismida, botanika bog'inining yonida joylashgan. Men va ikki o'g'lim tez-tez hayvonot bog'iga borib turamiz. Biz avtobusga o'tiramiz va yarim soatlik yo'lidan so'ng hayvonot bog'i eshigi oldida avtobusdan tushamiz. Eshik oldida kirish biletleri sotib olamiz va hayvonot bog'iga kiramiz. Toshkent hayvonot bog'i juda katta. Toshkent hayvonot bog'i Markaziy Osiyodagi eng katta hayvonot bog'i bo'lib, uni bir marta boshdan oyoq ko'rib chiqish va hayvonlarini tomosha qilish juda qiyin. Lekin hayvonot bog'idagi turli yovvoyi hayvonlarni tomosha qilish shunchalik qiziqarli-ki, odam charchaganini ham esidan chiqaradi. Bundan tashqari hayvonot bog'ida dam olish va ko'ngil ochish uchun turli xil vositalar bor. Ayniqsa, bolalar uchun turli xil attraksionlar va o'yin maydonchalari bor. Ot o'rniqa eshak qo'shilgan aravalalar bolalarni hayvonot bo'g'inining u boshidan bu boshiga olib boradi va olib keladi. Bolalar aravalarga chiqib, hayvonot bog'inining turli bo'limlarini tomosha qiladilar.

Men o'g'illarim bilan Toshkent hayvonot bog'iga tez-tez borib turishimga qaramay, har gal borganimda uni tomosha qilishdan zavqlanaman.

Ikkinchchi mashg'ulot

باب هفتہم (Yettinchi bob)

Arab fe'l boblarining yettinchisiga oid masdar va aniq nisbat sifatdoshlari ham fors tilida keng ishlataladi.

Yettinchi bobning masdari الفعال *enfe' ā/qolipida* yasaladi:

enqelāb - inqilob, انقلاب *en'ekās* - in'ikos, akslantirish va h.k.

Mazkur bobning aniq nisbat sifatdoshlari منفعل *monfa' e/qolipida* yasaladi:

mon'akes - aks ettirilgan, aylantirilgan va h.k.

5-mashq. Quyidagi o'zaklardan yettinchi bob masdarini yasang va tarjima qiling.

ب س ط - ج م د - ح ر ف - خ ص ر - ر ح ر - س د د - ض ب ط
- ط ب ع - ط ب ق - ع ط ف - ع ق د - ف ج ر - ف ر د - ف ص
ل - ق ر ض - ق س م - ق ي د - ك ه ف - ه د م - ه ز م .

6-mashq. Quyidagi o'zaklardan yettinchi bob aniq nisbat sifatdoshlarini yasang va tarjima qiling.

ب س ط - ج م د - د ر ج - د ر س - ص ر ف - ط ب ق - ع ق د
- ف ج ر - ف ر د س ل ف ه م ق ر ض - ق س م - ق ط ع - ق ل
ب - ك س ر - ك ه ف - ه د م - ق ب ض س ف ع ل

7-mashq. Fors tiliga tarjima qiling.

Biz kecha guruhimiz talabahari bilan Toshkent hayvonot bog'iga borishga kelishib olgan edik. Bugun ertalab soat 10 da universitet hovlisida uch rashdik va hamnamiz 115-avtobusga o'tirib, hayvonot bog'iga jo'nadik. Hayvonot bog'igacha yarim soat yo'l yurdik. Avtobusda Habib dedi: "Men hayvonot bog'iga tez-tez borib turaman. Hayvonot bog'i shunchalik chiroyli va qiziqarli-ki, har gal yangi-yangi narsalarni ko'raman". Ahmad undan so'radi: "Hayvonot bog'i qaysi faslda chiroyli bo'ladi?". Habib javob berdi: "Toshkent hayvonot bog'i botanika bog'inining yonida joylashgan. U Markaziy Osiyodagi eng katta hayvonot bog'i bo'lib, boshidan-oxirigacha daraxtlar va o'simliklar bilan qoplangan. Shuning uchun yilning har fasli uning chiroyini oshiradi". Men Habibdan so'radi: "Toshkent hayvonot bog'inining yer maydoni qancha?". Habib javob berdi: "Toshkent hayvonot bog'inining yer maydoni qanchaligini bilmayman. Lekin hayvonot bog'i shunchalik katta-ki, uning hamma bo'limlari va hayvonlarini bir kunda ko'rib chiqib bo'lmaydi".

Bu orada avtobus hayvonot bog'i eshigi oldidagi bekatda to'xtadi. Biz hammamiz avtobusdan tushdik va kirish biletlarini xarid qilib, hayvonot bog'iga kirdik. Hayvonot bog'i haqidagi hikoyamning qolganini ertaga davom ettiraman.

Uchinchi mashg'ulot

باغ و حش

(ادامه)

پس از آنکه وارد باغ و حش شدم از بخش حیوانات در لده، مانند شیر، بیر، پانگ و گرگ شروع به تماشا کردم، سپس بخش پرنده‌گان را دیدم. انواع و اقسام پرنده‌گان در آنجا بود که تا حال مثل آن را ندیده بودم و برای من تازگی داشت. من فقط پرنده‌گانی، مانند: گنجشک، بلبل، کبوتر، عقاب، طوطی، طاووس و بعضی دیگر را دیده بودم، ولی در باغ و حش تا شکنده، انواع پرنده‌گان به قدری است که همه‌ی آنها را نمی‌شد نام برد.

لیلی و مریم از تماشای دو بخش، خیلی لذت برداشتند. یکی بخش میمونها بود که انواع میمون و میمونهای کوچک و بزرگ در آنجا بودند؛ بازی می‌کردند، می‌جهیدند، می‌خندیدند و ادا در می‌آوردن و باعث خنده و تفریح تماشچیان بودند. بخش دیگر هم بخش سگهای آبی و خرس سفید بود که در آب، بازی می‌کردند و کودکان از دیدن بازی‌ها و حرکات آنها لذت می‌بردند. آن روز ما چند ساعت در باغ و حش بودیم و قسمت‌های مختلف آن را تماشا کردیم و حیوانات زیادی، مانند: فیل، شتر، آهو، گوزن، هنگ، بز، خر، مار و جانوران دیگر را دیدیم. وقتی که به منزل برومی‌گشتم، از مریم پرسیدم: خسته نشده‌ی؟ گفت: نه، تماشای باغ و حش، آنقدر جالب بود که حاضرم هفته‌ی دیگر هم به تماشای آن بروم.

Leksik izohlar

1. *beyadri va بە خىدىي بە قىدرى* *beyadri* va *behaddi* birikmalari o'zbek tilidagi "shunchalik" so'zi ma'nosini ifodalaydi va biror predmet va hodisaning miqdor va sifat jihatidan belgi xususiyatlarini bo'rttirib ko'rsatish uchun ishlatiladi.

2. *ادا در آوردن adā dar-āvardan* fe'l'i o'zbek tiliga "kulgili qiliq va harakatlar qilmoq" birikmasi orqali tarjima qilinadi. Bu fe'l kim yoki nima g'ayritabiyy harakat va qiliq qilayotganini ifodalash uchun ishlatiladi.

3. *باعث bā'es* "sabab, bois" so'zi *budan* va *شىدن šodan* fe'llari bilan birikib, murakkab fe'l tashkil etadi. Bu murakkab fe'llar, asosan, distant holatda ishlatiladi.

باعث چىزى بودن bā'es-e čizi budan biror narsaga.

باعث چىزى شىدن bā'es-e čizi šodan sabab bo'limoq.

Masalan: *حرکت آنما باعث خنده بود.* *harakat-e ānhā bā'es-e xande bud* – Ularning harakatlari kulishga sabab bo'ldi (kulgu uyg'otdi).

8-mashq. Matndan arab fe'l boblari, sifat va ravishlar, joy va vaqt ma'nosidagi so'zlar qolipi asosida yasalgan so'zlarni toping.

9-mashq. Quyidagi jumlalarni fors tiliga tarjima qiling.

Toshkent hayvonot bog'ida turli-tuman hayvonlar juda ko'p. Biz u yerda nafaqat sher, bo'ri, yo'lbars, qoplon kabi hayvonlarni, balki fil, ayiqlar, kiyiklar, tuyalar, begemotlar va maymunlarni ham ko'rdik. Hayvonot bog'ining maxsus bo'limlarida, shuningdek, burgutlar, tovuslar, to'tilar, g'ozlar, o'rdaklar kabi va men hali ko'rмаган turli xil parrandalar bor. Katta o'g'lim, ayniqsa, ikki bo'lim – maymunlar va ayiqlar bo'limlarini tomosha qilishdan lazzat oldi. Maymunlar bo'limi oldida har doim odam ko'p, ayniqsa, bolalar ko'p to'planadi. Turli xildagi katta va kichik maymunlar xilma-xil o'yinlar o'yнaydilar va tomoshabinlarda kulgu uyg'otadilar. Kichik o'g'limga ko'proq timsoh va begemotlar yordi.

Begemotlar suvda suzib, turli o'yinlar o'ynaydilar va tomoshabinlar ularni tomosha qilishdan lazzat oladilar. Biz hayvonot bog'ida taxminan 3-4 soat bo'ldik va keyin uyg'a qaytdik. Uyda o'g'illarim onasiga hayvonot bog'i haqida so'zlab berishdi.

10-mashq. Quyidagi jumlalarni fors tiliga tarjima qiling.

Biz hayvonot bog'iga kirib hayvonlarni tomosha qilishni boshladik. Aytish kerakki, Toshkent hayvonot bog'i shaharning go'zal va serdaraxt qismida joylashgan. Biz avval baliqlar va dengiz hayvonlari bo'limini tomosha qildik. Bu bo'limdagi katta-kichik akvariumlar hamda hovuzlardagi baliqlar va dengiz hayvonlarining turlari shunchalik ko'PKI, ularning nomini sanash juda ko'p vaqt ni talab qiladi. Biz bu bo'limda yarim soatdan ko'proq bo'ldik. Baliqlar va dengiz hayvonlari bo'limini tomosha qilib bo'lganimizdan so'ng qushlar bo'limiga bordik. Bu bo'limda guruhimiz talabalarining ba'zilari haligacha ko'rmagan qushlarning turlari juda ko'p edi.

Maymunlar bo'limi o'sha kuni tomoshabinlarga, ayniqsa, bolalarga to'la edi. Bolalar maymunlarning o'yinlarini tomosha qilishar va juda quvonishardi. Qafasdagagi maymunlar daraxtdan daraxtga sakrashar, turli o'yinlar ko'rsatishardi.

Biz hayvonot bog'ida 4-5 soatcha bo'ldik. Lekin uning barcha bo'limlarini tomosha qilishga ulgurmadi. O'rtoqlarim bilan kelasi dam olish kuni ham hayvonot bog'iga kelishga qaror qildik va avtobusga o'tirib, uyg'a qaytdik.

To'rtinchchi mashg'ulot

گفتگو

- شما ھىچ بە باغ وحش تاشكىند رفته ايد؟
- بله، يكشىبەي گۈشىتە با دىخترانم بە باغ وحش تاشكىند رفيم.
- مى گۈيند باغ وحش تاشكىند خىلى بىزىرگ است؟
- بله، درست مى گۈيند، باغ وحش تاشكىند بىسياز بىزىرگ است.

- می گویند در باغ وحش تاشکند، همه نوع حیوان هست؟
- بله، صحیح است، شما در باغ وحش تاشکند، حیواناتی می بینید که متعلق به کشورهای مختلف دنیا است، مثلاً حیوانات درنده، مانند: شیر، بیر، پلنگ از صحراری و جنگلهای آسیا و آفریقا، پرندگانی مانند طاوروس و غیره متعلق به هندوستان و خرسهای سفید از قطب شمال و غیره.
- آبا شما تو استید همه ی بخشها و قسمتهای باغ وحش و تمام حیوانات را ببینید؟
- بیشتر بخشها و قسمت های آن را دیدم.
- خسته نشدید؟
- برای آنکه مردم خسته نشوند و بتوانند تمام یا بیشتر قسمت های باغ وحش را ببینند، در باغ وحش برای همه و مخصوصاً برای کودکان وسایل استراحت و تفریح فراهم کرده اند.
- مثلاً چه وسایلی برای استراحت و تفریح هست؟
- برای استراحت، مغازه های مختلف، کیوسکهای روزنامه و مطبوعات و کالله ها است. شما می توانید به کالله رله، چای و شیرقهقهه و کاکائو بتوشید یا شیرینی و بستق بخوردید یا روی نیمکتهای اطراف غرفه مطبوعاتی نشسته، روزنامه یا مجله بخوانید و بدین ترتیب کمی استراحت کنید.
- برای کودکان چه وسایل تفریحی هست؟
- برای کودکان، وسایل تفریح گوناگون است. یکی از وسایل تفریح کودکان، آن است که در یک میدانی به درشكه، به جایی اسب الاغ بسته اند، کودکان سوار درشكه می شوند و چند بار دور میدان می گردند و از آن لذت می برند و در عین حال استراحت هم می کنند.

- در باغ وحش، حیوانات را تربیت هم می کنند یا فقط آنها را در آنجا نگه داشته اند؟

- باغ وحش، فقط جای نگهداری حیوانات نیست، بلکه در آنجا حیوانات را تربیت هم می کنند. مثلاً در قفس حیوان درنده ای چون شیر، سگ کوچکی هم زندگی می کند و با هم بازی می کنند. اینها با هم بزرگ شده اند و چنان به همیگر عادت کرده اند که شیر سگ را نمی خورد و سگ از شیر نمی ترسد.

- دیگر چه چیز جالب توجهی دیدید؟

- چیزهای جالب توجه زیاد داشت. مثلاً فیلی هست تربیت شده و باهوش که خیلی با پرستار خود مهریان است، مردم پول می اندازند و او با خرطوم خود پول را بر می دارد و به پرستار می دهد و در مقابل، پرستار به او قند یا خوراکی دیگر می دهد. این منظره برای همه و بویژه برای کودکان جالب توجه است. یا اینکه میموفا بازی می کنند و ادا در می آورند و باعث خنده هی مردم می شوند، خرسهای سفید در آب بازی می کنند و نظر مردم را به خود جلب می نمایند.

- پس باغ وحش تاشکند، خیلی جالب است، باید حتماً آن را دید؟

- بله، خیلی جالب و دیدنی است، دخترم آنقدر از دیدن باغ وحش، راضی و خوشحال شد که از من خواهش می کرد هفته ی دیگر هم به تماشای آن بروم.

Leksik izohlar

1. *čun so'zi omonim so'zlar qatorini tashkil etadi:*

چون *čun* – paytda, vaqtida

چون *čun* – uchun

چون *čun* – o‘xshash, kabi.

2. تربیت کردن *tarbiyat kardan* fe’li “tarbiyalamoq, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmoq” ma’nolarida ishlataladi. Matnda bu fe’l hayvonlarni turli xil o‘yin va mashqlarni bajarishga o‘rgatish ma’nosida qo‘llangan.

11-mashq. Quyidagi maqollarni yod oling.

ضرب المثل

از خرس، مسوی *az xers mui* – Tegirmondan chiqqani qarzdordan ungani (aynan: ayiqdan bir tuk).

مارگزیده از ریسمان سیاه و سفید می ترسد. *mār gazide az rismān-e siyāh-o sefid mitarsad* – Qo‘rqqanga qo‘sht ko‘rinar, Sut ichib kuygan qatiqni ham puflab ichadi.

12-mashq. Matn tarkibidagi I-VII boblarga va boshqa tegishli qoliplarga oid arabiyo so‘zlarni toping va ko‘chirib yozing.

13-mashq. “Toshkent hayvonot bog‘i” mavzusida fors tilida so‘zlab bering.

14-mashq. Quyidagi so‘zlarning sinonimlarini toping va qator qilib yozing.

گунағон – جالب – بزرگ – توجه کردن – فهمیدن – خواستن

15-Mashq. Quyidagi jumtlalarni fors tiliga yozma tarjima qiling.

Toshkent hayvonot bog‘ida dunyoning turli mamlakatlariga oid, ya’ni Afrikadan tortib Shimoliy qutbgacha tegishli bo‘lgan hayvonlar bor. Hayvonlarning aksariyati qafaslarda yashaydi. Toshkent hayvonot bog‘ida hayvonlarni turli o‘yin va mashqlarga o‘rgatadilar. Masalan, men sher kabi yirtqich hayvonning kichkina it bilan bir qafasda yashayotganini ko‘rdim. Ular birga katta bo‘lishgan, bir-

biriga shunchalik o'rganib qolganki, sher itga tegmaydi (aynan itni yeb qo'y maydi), it esa sherdan qo'rqlaydi.

Men yana hayvonot bog'ida o'rgatilgan filni ko'rdim. U juda aqlli va o'z boquvchisiga mehribon. Filning qafasi atrofida doim odamlar to'planishadi. Odamlar unga tanga tashlashadi, fil uni xartumi bilan yerdan olib, o'z boquvchisiga beradi. U filga tashakkur aytadi va unga non yoki qand beradi. Bu tomosha, ayniqsa, bolalar uchun qiziqarli.

Kecha hayvonot bog'inining bir necha bo'limini tomosha qilgach, men va og'illarim charchab qoldik. Biz ro'znomalar do'konini yonidagi o'rindiqqa o'tirib, bir oz dam oldik. Chorak soat dam olgach, hayvonot bog'ini tomosha qilishni davom ettirdik.

YIGIRMANCHI DARS

Birinchi mashg‘ulot

Sakkizinchchi bob (باب هشتم)

Fors tili lug‘at tarkibiga arab fe'l boblarining sakkizinchisiga oid masdar va aniq nisbat sifatdoshlari ham kirgan.

Sakkizinchchi bob masdari افعال *efte 'äl* qolipida yasaladi:

entezär – kutish, umid, اشتباہ *eştebâh* - xato va h.k.

Mazkur bobning aniq nisbat sifatdoshi مفعول *mofsta'el* qolipida yasaladi:

montazer – kutuvchi, umid qiluvchi, منتظر *montaşer* – nashr qilingan; hammaga ma'lum va h.k.

1-mashq. Quyidagi o‘zaklardan sakkizinchchi bob masdarlarini yasang va lug‘at yordamida tarjima qiling.

ب ک ر - ج م ع - ج ه د - ح ب س - ح ض ر - ح د س - ح ر م -
ح س ب - ح م ل - خ ت م - خ د ع - خ ص ص - خ ل ف - ر ب ط
- ر ف ع - س ر ق - س ن د - ش ر ك - ش ع ل - ش غ ل - ع ب ر
- ع ر ض - غ س ل - ف ت ح - ف خ ر - ق ب س - ق د ر - ق ص
د - ك ش ف - ل ز م - ل ت ف - ل م س - م ح ن - م د د - م ي ز - ن
خ ب - ن ش ر - ن ظ ر - ن ظ م - ن ق ل - ن ق م .

2-mashq. Quyidagi o‘zaklardan sakkizinchchi bob aniq nishat sifatdoshini yasang va lug‘at yordamida tarjima qiling.

ج م ع - ج ن ب - ح ر ق - خ ل س - خ ل ط - خ ل ف - ر ب ط -
ر ك ب - س ب د - س ت ر - س ق ر - س ق ل - س م ر - س ن د - ش
ب ه - ش ر ك - ش ع ل - ش م ع - ع د ل - ع ذ ر - ع ر ض - ع ق د -

ف خ - ف ب س - ق در - ق ص د - ك ش ب - ك ش ف - ل ز م - ل
ف ت - م ح ن - ن ح ب - ن س ب - ن ظ ر - ن ق ل - ن ق م .

Ikkinchchi mashq‘ulot

O‘ninchchi bob (باب دهم)

Fors tili lug‘at tarkibiga, asosan, o‘ninchchi bobga oid masdarlar o‘zlashtirilgan. O‘ninchchi bobning masdari استفعال *estef‘al* qolipida yasaladi:

استمار *estesmār* – ekspluatatsiya; استقبال *esteybāl* – kutib olish va h.k.

O‘ninchchi bobning aniq va majhul nisbat sifatdoshlari fors tilida nisbatan kam uchraydi.

a) aniq nisbat sifatdoshi مستفعل *mostaf‘el* qolipiga ega:

مستمر *mostasmer* – ekspluatatsiya qiluvchi, ezuvchi, مستقبل *mostaqbel* – kutib oluvchi va h.k.

b) majhul nisbat sifatdoshi esa مستفعل *mostaf‘al* qolipi asosida yasaladi:

مستمر *mostasmar* – ekspluatatsiya qiliniuvchi, مستقبل *mostaybal* – kutiluvchi va h.k.

O‘ninchchi bob shakllarining umumiy ma’nosи biror narsani egallab olish, o‘ziniki qilishga intilish kabi yo‘nalishga ega bo‘ladi.

استقبال

Диروз шебдим ке аҳд аз бхара ми آيد. او روزهای تعطیل تابستان را به بخara پیش پدر و مادر خود رفته بود. او يك ماه و نیم در آنجا بود. حالا به تاشکند می گشت تا اول سپتامبررا که روز آغاز سال تحصیلی است، در دانشگاه حاضر

باشد. رفقا قرار گذاشتند به استقبالش بروند. این بود که امروز صبح، ساعت یازده به ایستگاه راه آهن رفتیم. بین راه یک دسته گل خریده با خود بردم تا به او هدیه نمایم. قطار راه آهن، ساعت یازده و نیم به ایستگاه وارد شد. احمد در واگن ششم بود. از پشت پنجره‌ی واگن مارا دید و با سرعت به طرف ما آمد. احمد را همی ما دوست دارم. او پسر خوبی است، زرنگ و با استعداد است، به دوستانش احترام می‌گذارد و در تحصیل کوشش می‌کند. به این خاطر، همه اورا با آنوش باز پذیرفتند و بوسیدند و او به همه دست داد و از همه احوالپرسی نمود. حسن از طرف ما به او خوشامد گفت و مراتب شادی رفقا را از مراجعت او به تاشکند در چند کلمه بیان داشت. بعد از آن، همه دور اورا گرفتیم، هر کس سوالی می‌کرد و از حالش می‌پرسید و او به پرسشها پاسخ می‌داد. یکی غیر می‌خواست که نتوانست به او نامه بنویسد. احمد غیر اورا می‌پذیرفت. دیگری سخن از ملاقات‌های بعد به میان می‌آورد. احمد به او وعده‌ی ملاقات می‌داد. هر کس به نوبه‌ی خود چند کلمه با او سخن می‌گفت و شادی و خوشحالی خود را از دیدار او بیان می‌داشت و او به سخنان همه با دقت گوش می‌داد و از اظهار دوستی رفقا شاد می‌شد و لذت می‌برد. اورا تا مرتلش مشایعت نمودنم و وقتی که به منزل او رسیدم از همی ما تشکر کرد و با همه از تو دست داد و خدا حافظی نمود. آن وقت، قرار شد که فردا ساعت پنج بعد از ظهر در حیاط دالشگاه ملاقات کنیم و ما خوشحال از دیدار با احمد، هر یک به خوابگاه عمومی و یا منزل خود برگشته‌یم.

Leksik izohlar

1. *yarar gozästan fe'li o'zbek tiliga "kelishib olmoq", "shartlashmoq" fe'llari orqali tarjima qilinadi. Bu fe'l ham kontakt va ham distant holatlarda ishlatalishi mumkin:*

رфка брای ملاقات قرار گذاشت. *rofayā barāye molāyāt yarār gozāštand* yoki:

رфка قرار ملاقات گذاشت. *rofayā yarār-e molāyāt gozāštand* – O'rtoqlar uchrashuvga kelishib oldilar.

2. قرار *yarār so'zi*, shuningdek, quyidagi birikmalar tarkibida ishlataladi:

az in *yarār budan* – Quyidagilardan iborat bo'immoq.

نام های ماها از این قرار بود. *nāmhā-ye māhhā az in yarār bud* – Oylarning nomlari quyidagilardan iborat edi.

بايسен قرار شد *yarār šod* birikmali *bāyestan* modal fe'li kabi biror ish-harakat bajarilishi zaruriyati yoki majburiyati ma'nolarini ifodalaydi va umumiy tarzda o'zbek tiliga "(biror ishni qilishga) kelishib olingan edi" yoki "(biror ish) bo'lishi kerak edi" birikmali bilan tarjima qilinadi. Tegishli ish-harakatni ifodalovchi fe'l aorist shaklida turadi.

3-mashq. Quyidagi o'zaklardan II bob masdarlarini yasang va lug'at yordamida tarjima qiling.

ب د د - ب د ل - ب ش ر - ح ص ل - ح ض ر - ح ف ظ - ح ك م
- خ د م - خ ر ج - خ ل ض - د ر ك - د ل ل - ر د د - ش و د - ظ و ر
- ع د د - ع م ل - غ ر ف - ق ر ر - ق ر ض - ق ل ل - م د د - م ر ر -
م ل ك - ن ب ط - ن ت ج - ن س خ - ن ط ق - ه د ك - ه ل ل .

4-mashq. Quyidagi o'zaklardan X bob aniq nisbat sifatdoshi yasang va lug'at yordamida tarjima qiling.

ب ض ر - خ ب ر - خ د م - ش ع ر - ش ر ق - ع ر ب - ع ص م
- ع ل م - غ ر ب - غ ر ق - ف ه م - ك ب ر - د ز م - م ل ك -
ن س خ - ن ك ف .

5-mashq. Quyidagi o'zaklardan X bob majhul nisbat sifatdoshi yasang va lug'at yordamida tarjima qiling.

ح د ث - ح س ن - ح ض ر - ح ك م - ح ر ج - ح ل ص - ع م ل
- ق ب ل - ه ل ك .

6-mashq. Matn tarkibidagi I-X boblar shakllariga oid so'zlarini toping va ko'chirib yozing.

7-mashq. Quyidagi jumllalarni fors tiliga tarjima qiling.

Kecha biz Hasan bilan Ahmadni kutib olishga kelishib oldik. Ahmad yozgi ta'til kunlari Xorazmga ota-onasining yoniga ketgan edi. Biz uni deyarli 2 oy ko'rmagan edik.

Guruhimizning boshqa talabalari biz bilan bormoqchi ekanliklarini aytishdi. Biz ertalab soat 10 da uchrashishga kelishib oldik.

Ertalab vokzalga kelganimda o'rtoqlarim meni kutib turishgan ekan. Men bir oz kech qolganim uchun ulardan uzr so'radi.

Biz hammamiz Ahmadni yaxshi ko'ramiz. U juda yaxshi va iste'dodli bola, o'qishda hammamizdan oldinroqda. Bundan tashqari, Ahmad barcha o'rtoqlarimni hurmat qiladi.

Biz Ahmadni quchoq ochib kutib oldik. U ham bizni ko'rghanidan xursand bo'ldi. Har birimiz bilan qo'l berib ko'rishdi va hol-ahvol so'radi. Hasan bizning nomimizdan Ahmadni yetib kelgani bilan tabrikldi. Shundan so'ng biz Ahmadni o'rab oldik. Har birimiz unga savol berardik, u esa navbat bilan savollarga javob berardi.

Ahmad mendan xat yoza olmagani uchun uzr so'radi. Men uning uzrini qabul qildim va u bilan uchrashishga kelishib oldim. Ahmad yo'lda bizga o'z safari haqida so'zlab berdi. Hammamiz diqqat bilan uning hikoyasini eshittdik.

Ahmadni to uyigacha kuzatib bordik. U bizga yana bir bor tashakkur aytdi va har birimizga boshqatdan qo'l berib xayrlashdi.

Uchinchi mashg'ulot

1 -*�* va *Ӯ* -*än* qo'shimchali hozirgi zamon sifatdoshlari

Sifatdosh fe'l negizidan yasaluvchi shakl bo'lib, o'zida ham fe'llik, ham sifatlik xususiyatlarini mujassam qiladi. Lekin shuni ham qayd etish lozimki, sifatdoshlarning ayrim turlari, ayniqsa, hozirgi zamon sifatdoshlari o'zlarining fe'llik xususiyatlarini deyarli to'liq yo'qotib, ko'proq sifat yoki ot turkumlariga oid ma'no va vazifalarga ega bo'ladı.

Fors tilida hozirgi zamon sifatdoshlarining uch turi mavjud:

a) *ән* – *ande* qo'shimchali hozirgi zamon sifatdoshlari;

b) 1 – *ä* qo'shimchali hozirgi zamon sifatdoshlari;

v) *Ӯ* – *än* qo'shimchali hozirgi zamon sifatdoshlari.

Yuqorida zikr etilgan sifatdoshlarning barchasi fe'lning hozirgi zamon negiziga ko'rsatib o'tilgan qo'shimchalarni qo'shish orqali yasaladi. Biz oldingi darslarimizda *ән* – *ande* qo'shimchali hozirgi zamon sifatdoshi haqida so'z yuritgan, uning yasalishi va ishlatalishi bilan tanishgan edik. Shuning uchun, asosan, hozirgi zamon sifatdoshlarining qolgan ikki turiga diqqatimizni qaratamiz.

1 – *ä* qo'shimchali hozirgi zamon sifatdoshlari fe'lida ifodalangan ish-harakat bilan bog'liq bo'lgan xususiyat, belgilarni ifodalaydi. Sifatdoshlarning bu turi o'zida asliy sifatlarga xos bo'lgan barcha xususiyat va vazifalarni namoyon qila oladi:

Дана *dānā* (данестан – bilmoq fe'lidan) – biluvchi, dono.

Гуя *guyā* (گەنگەن *gofstan* – gapirmoq fe'lidan) – ovozli (film haqida); gapiruvchi.

Куса *kuśā* (کوشىدىن *kuśidan* – harakat qilmoq, intilmoq fe'lidan) – harakatchan, intiluvchan va h.k.

Ан – *än* qo'shimchasi yordamida yasaluvchi hozirgi zamon sifatdoshlari murakkab va ziddiyatli mohiyatga ega. Ular morfologik jihatdan hech qanday o'zgarishsiz ham ravishdoshlik vazifasini

bajara oladi, ham sifat turkumiga xos belgilarni namoyon qila oladi.
Masalan:

آويزان *āvizān* (آرخىتن *āvixtan* – osmoq, osilmoq fe'lidan) – osib, osilib.

بويان *buyān* (*buyidan* – hidlamoq fe'lidan) – hidlab, hidlovchi.

روان *ravān* (*raftan* – bormoq, ketmoq fe'lidan) – ravon, oqar (daryo) va h.k.

8-mashq. Quyidagi baytni yod oling.

ز دانش دل پير بارنا بود

تونا بود هر كه دانا بود

*Tavānā bovad har ke dānā bovad
ze dāneš del-e pir bornā bovad*

9-mashq. Quyidagi fe'llardan 1 – ⚡ qo'shimchasi yordamida hozirgi zamon sifatdoshlarini yasang va tarjima qiling.

گفн – کوشیدن – خواندن – دیدن – دانستن – داشتن – گرفن –

توانستن – رسیدن – شنیدن.

10-mashq. Quyidagi fe'llardan 2 – ān qo'shimchali hozirgi zamon sifatdoshlari yasang va tarjima qiling.

رفن – گفн – پرسیدن – کردن – رسیدن – خواندن – آویختن –

درخشیدن – جوشیدن – التماس کردن – اشک ریختن – شایستن.

11-mashq. Quyidagi jummalarni fors tiliga yozma tarjima qiling.

Ahmad eng yaqin o'rtoqlarimdan biri. Biz u bilan birga katta bo'lganmiz, birga boshlang'ich, o'rta maktablarda o'qiganmiz va hozir ham bir institutda o'qiyimiz: men fors bo'limida, Ahmad – arab bo'limida. Ahmad arab tilini o'rganyapti. Garchi bu til fors tiliga qaraganda ancha qiyinroq bo'lsa ham, Ahmadga yoqadi. Ahmad jiddiy va iste'dodli talaba. U darslarda juda harakat qiladi va ko'proq

narsa bilishga intiladi. Arab bo'limidagi hamma o'qituvchilar undan rozilar. O'rtoqlari ham uni juda yaxshi ko'rishadi. U juda yaxshi bola, samimiy va mehribon o'rtoq. Ahmad doimo do'stlariga yordam berishga tayyor.

Yozgi ta'til kunlarida Ahmad Xivaga, ota-onasining oldiga ketgan edi. Men yozgi ta'tilda chet el safarida bo'ldim. Bu muddat ichida Ahmadga birorta ham xat yoza olmaganimdan juda afsuslanaman. Yoz davomida guruhimiz talabalari unga 3-4 marta xat yozishibdi va Ahmad ularning hech qaysinisini javobsiz qoldirmabdi.

Ahmad Xivadan Toshkentga qaytayotganida men uning guruhidagi talabalar bilan uni kutib olgani chiqdim. Uni kutib olib, salom-alik va hol-ahvol so'rashdan so'ng, men Ahmaddan xat yozmaganim uchun uzr so'radim. Baxtinga, Ahmad mening uzrimni qabul qildi. Men undan yana uchrashishga va'da oldim. Men unga Xivanining qadimiyligi va boy madaniyati haqida suhbatlashmoqchi ekanligimni aytdim. Umid qilamanki, u mening barcha savollarimga javob beradi.

To'rtinchi mashg'ulot

تعطیلات تابستانی

ماه ژولیه، بعد از پایان درس و امتحانات، تعطیلات تابستانی ما آغاز می گردد. دانشجویان در روزهای تعطیل تابستانی درس ثبی خوانند و به مدت دو ماه استراحت می کنند. بعضی ها به شهرها و روستاهای خود پیش مادر و پدرشان می روند و برخی به استراحتگاه ها و آسایشگاه ها و یا به مسافت روند. باید گفت که در ازبکستان و بویژه در مناطق کوهستانی آن، استراحتگاه و آسایشگاه ها خیلی زیاد است. مردم در این مناطق می توانند هم استراحت کنند و هم امراض مختلف خود را معالجه نمایند.

در حدود هشتاد - نود کیلومتری شهر تاشکند، در منطقه‌ی کوهستانی "چاتقال"، مخزن آب بسیار بزرگ به نام "چارواق" قرار دارد. "چارواق" یکی

از بزرگترین مخازن آب آسیای مرکزی است که ظرفیت آن بیش از دو میلیارد متر مکعب می‌باشد. عرض مخزن آب مذکور در بعضی جاها تا پنج - شش کیلومتر می‌رسد و طول آن حدوداً سی کیلومتر می‌باشد.

اطراف مخزن آب "چارواق"، به از استراحتگاه‌های شاگردان دیبرستان‌ها و دانشجویان دانشگاه‌های مختلف است. زیرا در لعله‌ای گرم سال، این منطقه آب و هوای مطبوع و دلچسپی دارد. در همار و تابستان، هنچ‌ها سیزدهم می‌شود و کوههای‌ها، چشم‌اندازهای قشنگی به خود می‌گیرد. دانشگاه ما هم در کناره‌های یکی از رودخانه‌های "چارواق" استراحتگاهی برای دانشجویان و اساتید دارد.

امسال ما، یعنی چند نفر دانشجوی هنرکلاسی بعد از پایان دوره‌ی امتحانات به این استراحتگاه رفیم. از تاشکند تا منطقه‌ی "چارواق" پل ساعت و نیم تا دو ساعت راه است و ما تا آنجا با اتوبوس رفیم. در استراحتگاه، هم اطاق‌های در نفری و سه نفری و هم چادرهای پنج نفری و شش نفری هست. ما پنج نفر بودم و چون می‌خواستیم همه با هم پاشیم، در یکی از چادرهای پنج نفری مستقر شلیم. چادر ما زیر درختان پرسایه‌ای واقع بود. ما بعد از آنکه مستقر شلیم، جلوی کشیک تقه نودنم که هر روز به نوبت، نظافت و پاکسازی چادر و اطراف آن را المجام دهیم.

استراحتگاه دانشگاه ما در زمین به وسعت سه هکتار قرار دارد و آنجا تمام وسائل و محل‌های تفریح و استراحت، مانند: میادین ورزشی مختلف سالن‌های شترنج و بیلیارد و چند قایق برای قایقرانی در مخزن آب، پلازه‌های غذی و مرتب و غیره دارد. در استراحتگاه مذکور، همزمان، نزدیک صد نفر می‌توانند استراحت کنند و مردم برای صرف صبحانه و ناهار و شام به سالن غذاخوری

می‌روند. این سالن غذاخوری آشپزهای خوبی دارد که همیشه غذاهای خوشمزه می‌پزند.

باید گفت که استراحتگاه، برنامه‌های معنی در معین روز دارد. مثلاً هر روز، همه در ساعت هفت صبح از خواب پیدار می‌شوند و در میدان ورزش جمع شده، پانزده تا بیست دقیقه به زیر نظر استاد، ورزش می‌کنند. بعد از ورزش، دست و روی خود را می‌شویند و دندان‌هایشان را با خیر دندان مسواک می‌زنند، بعضی‌ها دروش آب سرد می‌گیرند و رأس ساعت هشت، در سالن غذاخوری جمع می‌شوند و صحیح‌حاله می‌خورند. پس از صرف صبحانه تا ساعت یک بعد از ظهر، وقت آزاد داریم. بعضی فوتبال و یا والیبال بازی می‌کنند، دیگران به سالن شترنج و بیلیارد و یا برای گردش به کوههای های اطراف می‌روند. ولی می‌توانم بگویم که بیشتر دانشجویان در این موقع، برای آبازی و آبتنی و قایقرانی به پلاز می‌روند. آفتاب دلچسب و آبِ صاف و خنک و پلاز تیز و مرتب، آن قدر باعث سرگرمی مردم می‌شوند که آنها حتی گذشت وقت و زمان را احساس نمی‌کنند.

ساعت یک، مجدداً در محل غذاخوری جمع شده، ناهار میل می‌کنند. بعد از صرف ناهار، از ساعت دو تا ساعت پنج عصر، وقت خواب و استراحت است. ساعت پنج، مردم به استراحت و تفریح و مشغولیات خود ادامه می‌دهند. بعد از خوردن شام، معمولاً برنامه‌های کسرت و یا کنکورهای خبرگان رشته‌های گوناگون و غیره برگزار می‌شود. آنگاه در ساعت ده و نیم تا یازده شب، همه به خواب می‌روند.

طبعی بیست و پنج روز، ما استراحت و تفریح خیلی خوب و جالبی داشتیم و بعد از آنکه به تاشکند برگشتم، خاطرات خود را برای پدر و مادر و نزدیکان خود تعریف کردیم. این تعطیلات تابستانی، به من و رفقاء خیلی خوش گذشت.

Leksik izohlar

1. **километр** *kilometr* so'zi yo'l va oraliq masofalari uzunligini o'chash uchun ishlataladi:

پنج **километр** *panj kilometr* – besh kilometr va h.k.

Fors tilida *dar...* در... **километри** ... *kilometri-ye...* birikmasi ma'lum punktdan qanchadir kilometr uzoqlikda joylashganligini bildiradi:

در پنج **километри** *dar panj kilometri-ye tāshkand* – Toshkentdan besh kilometr uzoqlikda (Toshkentga besh kilometr yetmasdan) va h.k.

2. **хорош گذшт** *xoš gozaštan fe'li* o'zbek tiliga "yaxshi, yoqimli o'tmoq" fe'li bilan tarjima qilinadi va, asosan, dam olish, sayr qilish va sayohatlarning juda ko'ngilli o'tishini ifodalash uchun ishlataladi:

Аин گрдеш бе мен **хорош گذшт**. *in gardeš be man xoš gozašt* – Bu sayr men uchun yaxshi o'tdi.

хорош мигнорд? *xoš migozarad* – Yaxshi dam olyapsizmi (sayohat qilyapsizmi)?

12-mashq. Quyidagi savollarga javob bering.

Түбилист табистани шما چе وقت آغاز ми шуд? Даншジョиан дар تعطیلات تабистани، مشғул چе کارхайи ми шонд? تعطیلات تабистани та چе мдёт адаме дард? Айа дар азбекстан, жаха и мұл ھاي استراحت زیاد است؟ استراحتگاه و آسایشگاه ھا بیشتر در کدام مناطق قرار دارد؟ Айа дар اطراف شهر تашкند استراحتگاهی هست؟ منطقه ي "چارواق" چه منطقه اي است؟ ظرفیت مخزن آب "چارواق" چه مقدار است و آب آن از کدام رودخانه است؟ آیا شما امسال در تابستان برای استراحت جایی رفیید؟ استراحتگاه دانشگاه در کجا واقع است؟ در این استراحتگاه، همزمان چند نفر می توانند استراحت کنند؟ آیا شما تنها به

استрaхтгah рeтиd? дr астrахтгah, атaк گрeтиd ya дr жaдaр мeстeрe Shдiдe? астrахtгah дaншgah, чe и oсaиil астrахtгah и tpeиy дaрd? آia астrахtгah az мeзn آb дoр aст? Mрdм дr астrахtгah, چtpoг aстrахtгah мi кeнnd, ya وقت мi گnraнd? آia астrахtгah bе шaх xoш گdшt?

13-mashq. Quyidagi jumlalarni fors tiliga yozma tarjima qiling.

Men va akam bu yil yozgi imtihonlardan so‘ng “Chorvoq” suv ombori bo‘yida dam olishga qaror qildik. “Chorvoq” suv ombori Toshkentdan 80-90 kilometr uzoqlikda. Aytish kerakki, bu suv ombori Markaziy Osiyodagi eng katta suv omborlaridan biridir. U tog‘li mintaqada joylashgan bo‘lib, atrofida ko‘m-ko‘k yaylovlar va chirolyi manzarali tog‘ yon bag‘irlari ko‘zga tashlanib turadi. Bu suv ombori joylashgan mintaqa ob-havosi, ayniqsa, yilning issiq fasllarida juda yoqimli bo‘ladi. Muloyim oftob va salqin suv, top-toza, tartibli, musaffo plyajlar dam olish uchun juda qulay sharoitlarni yaratadi.

“Chorvoq” suv ombori bir nechta tog‘ daryolarining suvini o‘zida to‘playdi va to‘plangan suv yoz oylarida sug‘orish ishlariga ishlatalidi.

Biz akam bilan ana shu daryolarning biri bo‘yida joylashgan dam olish uyiga bordik. Ertalab soat to‘qqizda avtobusga o‘tirdik va taxminan ikki soatlirk yo‘ldan so‘ng dam olish uyiga yetdik. Dam olish uyida ikki-uch kishilik xonalar va besh-olti kishilik chodirlar bor. Biz ochiq havoda ko‘proq bo‘lish uchun tengdoshlarimiz bilan besh kishilik chodirda joylashdik. Har kuni navbat bilan chodirimiz va uning atrofini o‘zimiz tozalab, yig‘ishtirib turdik.

Dam olish uyida turli sport o‘yinlari maydoni, shaxmat, stol tennisi, bilyard kabi o‘yinlar saloni va maydonchasi, usti ochiq kinoteatr, katta oshxona, cho‘milish uchun toza qumli plyaj, sayr qilish uchun bir nechta qayiq va boshqa turli vositalar bor. Har kuni mohir oshpazlar nonushta, tushlik va kechki ovqatlarga turli mazali taomlar pishiradilar. Dam olish uyida aniq kun tartibi bor va hamma ana shu tartibga amal qiladi. Biz dam olish uyida har kuni turli o‘yinlar o‘ynadik, tog‘ yon bag‘irlariga sayohat qildik. Lekin

aytishim kerakki, dam olishimizning aksariyati suv bo'yida, plyajda o'tdi.

Musaffo va salqin suvda cho'milish va suzish, qayiglarda sayr qilish, top-toza qumli plyajda turli o'yinlar o'ynash va oftobda qorayish bizni o'ziga shunchalik jalb qilardiki, hatto vaqtning o'tishini ham sezmasdik.

Biz dam olish uyida yigirma besh kun bo'ldik va bu muddat biz uchun juda ko'ngilli o'tdi. Toshkentga qaytib kelgach, o'z taassurotlarimizni ota-onamiz va yaqinlarimizga so'zlab berdik.

14-mashq. "Yozgi ta'til" mavzusida hikoya tayyorlang va so'zlab bering.

O'ZBEKCHA – FORSCHA LUG'AT

A

a'lo hazrat - اعلیحضرت - [a'lā hazrat]

a'mol - اعمال - [a'māl]

adliya - دادگستری [dādgostari]

afsuslanmoq - تأسف خوردن [ta'assof xordan]

agar - اگر [agar]

agressiya - تجاوز [tajīwaz]

ahvol so'ramoq - احوال پرسی کردن [ahvāl porsi kardan]

ajralib - جدا شده [jodā šode]

ajramoq - جدا شدن [jodā šodan]

ajratib ko'rsatmoq - مشخص کردن; جدا کردن [jodā kardan];
[mošaxxas kardan]

aka (uka) - برادر [barādar]

akalarcha - برادرانه [barādarāne]

aks ettirilgan - منعکس شده [en'ekās yāfṭe]; انعکاس یافته - [mon'akes šode]

aksariyat hollarda - در اکثر موقع [dar aksar-e mavāye]; بیشتر [bištar]

aksincha - بر عکس [bar 'aks]

aks ettirish - انعکاس دادن - [en'ekās dādan]

akvarium - مخزن شیشه ای [maxzan-e šiše-yi]

almashtirish - تبدیل کردن - [tabdil kardan]

almashuvchi - مورد تبدیل - [moured-e tabdil]

alohida - جداگانه [jodāgāne]

- alomat - نشانه [nešāne]
 aloqa - رابطه [rābete]
 amal qilmoq - مراعات کردن [‘amal kardan]; morāāt kardan]
 amalga oshmoq - عملی شدن [‘amali šodan]
 ammo - اما [ammā]
 ana - اینست [inast]
 ancha - خیلی [xeyli]
 anglatmoq - معنی دادن [ma’ni dādan]
 aniq - مشخص [dayiy]; دقیق [mošaxxas]
 aniq daraja sifatdoshi - فاعل [fā’el]
 aniq mayl - وجه اخباری [vajh-e axbāri]
 aniqlamoq - تشخیص دادن [tašxis dādan]; تدقیق کردن [tašxis dādan]
 aniqlovchi - مضاف الیه [mozāf-e elayh]; صفت الیه [sefat];
 aniqlovchi ergash gap - جله فرعی و صفتی [jomle-ye far’i-ye vasfi]
 anor - آنار [anār]
 antonim - متضاد [motazād]
 aorist - وجه شرطی [vajh-e šarti]
 apelsin - پرتقال [portoyāl]
 arab - عرب [arab]
 arabi - عربی [arabi]
 arabshunos - عرب شناس [arabšenās]
 aralashish - مداخله کردن [modāxele kardan]
 arava - گاری [gāri]; درشكه [doroške]
 ariq, anhor - رود [rud]; جوی [juy]

- arzon - ارزان [arzān]
 asar - اثر [asar]
 asliy sifat - صفت اصلی [sefat-e asli]
 asos - اساس [asās]; نهاد [nehād]; پایه [pāye]
 asr (kechki payt) - عصر [asr]
 asr - گلن [yarn]; سده [sade]
 atama - اصطلاح [estelāh]
 atamoq - نامیدن [nāmidan]
 attraksion - اتراکسیون [atrāksiun]
 atrof - اطراف [atraf]
 attorlik - عطاری [attāri]
 avgust - اوگوست اوت [ui]; [ougust]
 avrat - عورت [ourat]
 avtobus - اتوبوس [otubus]
 avtomobil - اتومبیل سواری [otumobil-e savāri]; خودرو [xodrou]
 avval - اول [avval]
 ayirmoq - جدا کردن [jodā kardan]
 aylanish - دور خوردن (زدن) [dour xordan (zadan)]
 aylanmoq - مبدل شدن، چرخیدن [čarxidan]; مبدل شده [mobaddel šodan]
 aylantirilgan - مبدل شده [mobaddel šode]
 aynan - دقیق [dayiy]
 ayni payt - همین حالا [aknun]; اکنون [hamin hālā]
 ayniqsa - بوجه به [beviže]
 ayol - نج [zan]

ayrim - بُرخى [barxi]; بعضى [ba'zi]

aytmoq - گفتان [gofšan]

aziz - عزيز [aziz]

B

ba'zan - بَعْضًا [ba'zan]

badantarbiya - تربیت جسمانی [tarbiyat-e jesmāni]; ورزش [varzeš]

bajarmoq - انجام دادن [anjām dādan]

bajaruvchi - انجام دهنده [anjām dehande]

baland - بلند [boland]

baliq - ماهی [māhi]

balki - بلکه [balke]

barcha - همه [hame]; تمام [tamām(e)]

barg - بُرگ [barg]

bari bir - پکسان [yeksān]

barmoq - انگشت [angošt]

basketbol - بسکتبال [bāsketbol]

baxt - سعادت [saādat]; خوشبختی [xušbaxti]

bayram - عید [eyd]; جشن [jašn]

bayt - بيت [beyt]

begemot - اسب آبي [asb-e ābi]

bekat - ايستگاه [istgāh]

belgi - نشانه [nešāne]; علامت [alāmat]

belgilamoq - علامت گذاري [alāmat gozāri]

- bemalol - آزادانه [āzādāne]
- berilgan - داده شده [dāde šode]
- bermoq - دادن [dādan]
- bevosita - مستقیماً [mostayiman]
- bilan - باهم [bā ham]; ب [bā]
- bildirmoq, anglatmoq - معنی داشتن [ma'ni dāstan]
- bilim bermoq - آموختن [āmūxtan]; باد دادن [yād dādan]
- bilim - دالش [dānesf]
- bilmoq - دانسان [dānestan]
- biluvchi - داننده [dānande]; دانا [dānā]
- bilyard - بليارد [biliyārd]
- bino - عمارت [emārat]; بنا [banā]; ساختمان [sāxtemān]
- binoan - مطابق [motābey]
- birga - ب [bā]; باهم [bā ham]
- bir butunlik - يك پارچيگي [yek pārčegi]
- bir necha - چندين [čandin]; چند [čand]
- bir oz - كمي [kamī]
- bir qancha - يك تعداد [yek te'dād]
- bir qatorda - در ردیف آن [dar radif-e ān]
- bir vaqtning o'zida - همزمان [hamzamān]
- bir-biri bilan - بين هم [beyn-e ham]; باهم [bā ham]
- biri - يكى [yekī]
- birikma - تركيب [tarkib]
- birikmoq - پيوند زدن [peyvand zadan]

- biriktirmoq** پیوند دادن - [peyvand dādan]
birinchilik اولویت - [avvaliyat]
birlik - وحدت [vahdat]; بگانگی [yegānegi]
biror - بگان [yegān]
biror-bir - هر کدام - هر يك [har kodām]; [har yek]
biroz - کمی [kami]
bitishuv - اتصالی [ettesälî]
bitkazmoq تمام کردن - فارغ شدن [fārey şodan]; تمام کردن [tamām kardan];
 به اتمام رسیدن [be etmām rasidan]
bluzka - بلوز [boluz]
bo'lak - قسمت [yesmat]
bo'lim - شبهه [ʃo'be]
bo'lmoq, emoq - بودن [budan]
bo'rttirib ko'satmoq بروز دادن - بروز دادن [boruz dādan]
bo'yicha - طبق [teby-e]
bo'yida - در لب [dar lab-e]; در دم [dar dam-e]
bo'yin - گرددن [gardan]
bob - فصل [fasl]
bodring - خیار [xiyār]
bog'- rog' باخ و بوستان - [bāy-o bustān]
bog'liq bo'lmoq ارتباط داشتن - ارتباط داشتن [ertebāt dāštan]
